

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

**MAMATALIEV AVAZBEK ROZUVAEVICH,  
MAMATALIEVA MADINA AVAZBEKOVNA**

**YURAK - QON TOMIRLARI  
PATOLOGIYASIDAN VAFOT ETGAN YANGI  
TUG'ILGAN CHAQALOQLARNING SUD  
TIBBIY EKSPERTIZASI**

**(MONOGRAFIYA)**



**KAFOLAT TAFAKKUR  
ANDIJON – 2024**



# ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI



**Mamataliev Avazbek Rozuvaevich, Mamatalieva Madina Avazbekovna**

**Yurak - qon tomirlari patologiyasidan vafot etgan yangi tug'ilgan  
chaqaloqlarning sud tibbiy ekspertizasi**

**(monografiya)**



**Andijon – 2024**

**UO'K: 340.6:616-001:629.113**

**KBK: 67.531**

**M22**

**MUALLIF:**

**MAMATALIEV  
AVAZBEK  
ROZUVAEVICH**

- Andijon davlat tibbiyot instituti patologik anatomiya va sud tibbiyoti kafedrasi mudiri, t.f.n., dostent

**MAMATALIEVA  
MADINA  
AVAZBEKOVNA**

- Andijon davlat tibbiyot instituti pediatriya fakulteti 532 guruh talabasi

**TAQRIZCHILAR:**

**TOSHBOEV S.M.**

- Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti sud tibbiyoti va patologik anatomiya kafedrasi dotsenti, t.f.n.

**ALIEV H.M.**

- Andijon davlat tibbiyot instituti tibbiy biologiya va gistologiya kafedrasi, dostenti, t.f.n.

*Monografiya Andijon davlat tibbiyot instituti Ekspert kengashi tomonidan 2024 yil – 30-yanvarda 8i-03/m son bayon bilan tasdiqlangan va nashrga tavsiya etilgan*

**ADTI Ekspert kengash kotibi  
t.f.n., dostent:**

**Ten D.**

**ISBN: 978-9910-9274-8-5**



**0432**

**© Mamataliev A.R., Mamatalieva M.A., 2024  
© “KAFOLAT TAFAKKUR” MCHJ, 2024**

## **QISQARTMA SO‘ZLAR**

**AVPAB** –Andijon viloyati patologik anatomiya bo‘limi

**STE-** Sud tibbiy ekspertiza

**ADTI-** Andijon Davlat Tibbiyot Inistituti

**MDX** - mustaqil davlatlar hamdo‘stligi

**RF-** Rossiya Federasiyası

**BMT-** Birlashgan millatlar tashkiloti

**O‘RVI-** O‘tkir respirator infekstiya

**RPAB** –Respublika patologik anatomiya markazi

## **ANNOTATSIYA**

Monografiya chaqoloqlardagi neonatal o'limlarda yurak-qon tomirlari patologiyalari haqidagi zamonaviy ma'lumotlar asosida tuzilgan, bunda uning etiologiyasi, patogenezi, klinink - patomorfologik o'zgarishlari yoritib berilgan. Ushbu monografiyada Andijon viloyatida neonatal davrlarda chaqoloqlar yurak – qon tomirlari tizimini patologiyalarini o`ziga xosligi mexanizmlari o'rganilgan. Olingan ma'lumotlar monografiyada izchil va o`zaro boqliq munosabatda tushintirilgan, ulardan diagnostikasida keng foydalanishi mumkin bo`ladi.

Ushbu monografiya sud tibbiy ekspertlar, klinisistlar, patologoanatomlar, ushbu soha bo`yicha klinik ordinatorlarga, magistrler va talabalarga mo`ljallangan.

## **АННОТАЦИЯ**

Монография составлена на основе современных сведений о патологии сердечно-сосудой системы при неонатальной смерти новорожденных, в которой даны разъяснения ее этиологии, патогенеза, клинических и патоморфологических изменений. В монографии изучены механизмы особенностей патологии сердечно-сосудистой системы новорожденных. Полученные данные монографии изложены взаимосвязанно и могут быть широко использованы в диагностике.

Монография предназначена для судебно-медицинских экспертов, врачей-клиницистов, патологоанатомов, клинических ординаторов, магистров и студентов.

## **ANNOTASTIYA**

The monograph is compiled on the basis of modern information about the pathology of the cardiovascular system in neonatal death of newborns, which provides explanations of its etiology, pathogenesis, clinical and pathomorphological changes. The monograph examines the mechanisms of the pathology of the cardiovascular system of newborns. The obtained data from the monograph are presented interconnectedly and can be widely used in diagnostics.

The monograph is intended for forensic experts, clinicians, pathologists, clinical residents, masters and students.

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Bugungi kunda chaqaloqlarda yurak-qon tomir kasalliklari tarqalishi haqida ma'lumotlarga aniqlik kiritilmagan [10, 27, 60].

Neonatal davrdagi kardiologik kasalliklar yurak sohasidagi shovqinlar, qon bosimining o'zgarishi, stianoz yoki arterial gipoksemiya, EKG va ko'krak qafasi rentgenogrammasida aniqlangan patologik o'zgarishlar, yurak aritmiyasi va yurak etishmovchiligi bilan namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, hayotning birinchi soatlarida yoki kunlarida yangi tug'ilgan chaqaloq holatining turli xil buzilishlari (asfiksiya, nafas olish qiyinlashuvi sindromi, pnevmoniya, turli xil kelib chiqadigan nafas etishmovchiligining rivojlanishi, intranatal infekstiyalar, intoksikastiyalar va b.) yurak-qon tomirlarining disfunksiyasini rivojlanishiga, yurak muskullarini kontraktilligini buzilishiga va surunkali etishmovchiligi rivojlanishiga olib keladi [91]

Yurakning tug'ma nuqsonlari hayotning birinchi kunidan ustunlik qila boshlaydi, og'ir kombinastiyalanganda birinchi kunlarda jiddiy gemodinamik kasalliklarga olib kelishi mumkin [13, 41, 66].

Gipoksemiya bilan yurak tug'ma nuqsonlari kombinastiyasi ko'k nuqsonlar deb ataladigan yangi tug'ilgan chaqaloqlarda juda og'ir va noqulay omili hisoblanadi, bunda to'qimalarda, shu jumladan miokardda xam kislorodni kam kelishi uni faoliyatini sezilarli darajada yomonlashtiradi [13].

O'ng qorinchani surunkali etishmovchiligi asosan o'pka arteriyasi bo'shlig'ining torayishi (stenoz), nafas etishmovchiligi va boshqalar bilan og'rigan bemorlarda, chap qorincha-stenoz yoki aorta bo'shlig'ining segmentar torayishi (koarktasiya), yurak aritmiyasi va boshqalar bo'lган bolalarda rivojlanadi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda o'ng va chap qorincha surunkali etishmasligi juda tez va ikkala qorinchaga ham ta'sir qiladi. Hayotning birinchi kunlaridan boshlab og'ir surunkali etishmasligiga belgilarining kuchayishiga olib keladigan kombinastiyalangan yurak nuqsonlari asosiy tomirlarning transpozistiyasini o'z ichiga oladi (yurak nuksoni- unda ikkita asosiy arteriya – aorta va o'pka arteriyasi – yurakdan kelib chiqadi, joylarni o'zgartiradi); umumiylar arterial magistral (yurak

nuqsoni- unda yurak ikkita asosiy tomir o‘rniga-aorta va o‘pka arteriyasi arteriyalari - bitta katta tomir chiqib, qonni katta qon aylanishi doirasiga, o‘pka va koronar tomirlarga olib boradi); o‘pka tomirlarining umumiy anomal joylashuvi (qon aylanish tizimining malformasiyasi, bu barcha o‘pka tomirlarining o‘ng atriumga yoki kollektorga qo‘silishi bilan tavsiflanadi); koarktastiya yoki aorta qopqasi stenozi; chap kamerali gipoplaziya sindromi (chap qorincha rivojlanmaganligi, o‘pka venasi chiqish traktining obstruksiyasi va/yoki aorta bo‘ylab, mitral va/yoki aorta stenozi o‘pka arteriyasi klapanining stenozi/atreziyasi; trikuspidal qopqa atreziyasi; Fallo tetradisi va b.[41,66].

Neonatal aritmiyalar kelib chiqishi juda geterogen bo‘lib, ularga yurak etishmasligi [35], miokardning yallig‘lanish va degenerativ kasalliklari va yurak o‘smalari sabab bo‘lishi mumkin. Yurak ritmini buzilishini ekstrakardial sabablariga metabolik gomeostaz kasalliklari kiradi (suv-elektrolitlar muvozanatining buzilishi; gipo - yoki gipertermiya; gipertiroizlar, dorilar ta’sir qilish va b.). Autoimmun biriktiruvchi to‘qima kasalliklari (tizimli qizil yuguruk), qandli diabet va homilador ayolda qalqonsimon bez kasalliklari yangi tug‘ilgan chaqaloqda yurak ritmi buzilishini rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Biroq, neonatal aritmiya sabablarining eng katta foizini markaziy va avtonom nerv tizimlarining patologiyalari egallaydi. O‘z navbatida, ikkinchisining genezi intranatal gipoksiya, neonatal asfiksiya va tug‘ilish travmasi bilan bog‘liq bo‘ladi. [27].

Metabolik kardiomiopatiya diagnostikasi uchun yurak mezonlari: 1) yurak bo‘shliqlarining kengayishi, miokardning qisqarish qobiliyatining pasayishi; 2) miokardni simmetrik gipertrofiyasi; 3) miokard gipertrofiyasi va qorincha kengayishining kombinastiyasi; 4) yurak etishmovchiligi standart terapiyasining refrakterligi; 5) yurak aritmiyasi (qorincha taxikardiyasi), o‘tkazuvchanlik buzilishi (sinus tugunining zaiflik sindromi, atrioventrikulyar blok); 6) elektrokardiogrammadagi ulkan T-to‘lqinlar; 7) oilada to‘satdan (aritmogen) yurak o‘limi holatlari. Ketozsiz gipoglikemiya, metabolik astidoz, giperlaktat va giperpiruvatemiya, kreatin fosfokinazaning ko‘payishi va jigar transaminaza

faolligining oshishi kabi laboratoriya mezonlari kardiomiopatiyalarning sababi yog‘ kislotalari almashinuvining buzilishi ekanligini ko‘rsatadi. Tashxisda molekulyar genetik tashxis qo‘yiladi. Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarning neonatal skriningi yog‘ kislotasi metabolizmining tug‘ma kasalliklarini erta tashxislash uchun ishlataladi, bu mass-spektrometriyada astilkarnitin va aminokislota profillarining buzilishini aniqlash imkonini beradi. Ko‘p hollarda oqibati yomon bo‘ladi [34,47,58,60].

R.A.Moisenko - bolalar o‘limini yuzaga kelishidagi xatarli omillardan birinchi navbatda – homiladorlikni dastlabki oylaridagi shikastlar va kasalliklar, keyingi o‘rinlarda esa homilani tug‘ma nuqsonlari, yuqumli va parazitar kasalliklar turishini ta’kidlagan.

2014yildagi ma’lumotlarga ko‘ra bu ko‘rsatkich Angolada eng baland ( $182\%$ ), Yaponiyada eng past ( $2,3\%$ ), O‘zbekistonda esa u  $24,3\%$  ni tashkil etgan [31].

Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarning o‘limi - 1000ta tirik tug‘ilgan chaqaloqga nisbatan bir yoshgacha bo‘lgan o‘lim xolatidir. Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarning o‘limi ko‘rsatkichi O‘zbekistonda 1990yilda  $51\%$ , 2000yilda  $46\%$ , 2010yilda  $34\%$ , 2016yilda  $29\%$ ni tashkil etgan. O‘zbekiston davlati mustaqillik yillarida yangi tug‘ilgan chaqaloqlarning o‘limi ko‘rsatkichi 3,2 martaga, homilador onalar o‘limi esa 3,1 martaga kamaytirishga erishdi. “Onalar va bolalar skriningi” dasturini tadbiq etilishi natijasida tug‘ma anomaliyalar bilan tug‘ilishlar soni 1,8 marta kamaydi [19,31].

Bolalar o‘limini kamaytirish – jamiyatni eng muxim yo‘nalishlaridan biridir. Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni o‘limini davlat tuzilmalari tomonidan kamaytirishga intilish – bu davlatni ekonomikasi siyosatini o‘zgartirishga jamiyatni ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishi darajasi ko‘tarishga, demokratik o‘zgarishlariga bog‘liq rivojlanishini ko‘rsatkichi sifatida yuzaga chiqadi. Shu bilan birgalikda bolalar o‘limini ko‘rsatkichi bolalar va onalarga tibbiy yordamni ko‘rsatilishi sifatiga, xajmiga, sog‘liq saqlash tuzilmalarini faoliyatini samaradorligi bilan korrelyastiya qilinadi.

**I-BOB. Yangi tug‘ilgan chaqoloqlarning o‘limi – tasnifi, etiologiyasi, klassifikastiyasi, statistikasi. Yurak - qon tomirlari sistemasi patologiyalaridagi perinatal o‘limlarning xususiyatlari, patomorfologik o‘zgarishlari (adabiyotlar taxlili)**

### **1.1. Yangi tug‘ilgan chaqoloqlarning o‘limi – tasnifi, etiologiyasi, klassifikastiyasi**

Yangi tug‘ilgan chaqoloqlarini o‘lim ko‘rsatkichi O‘zbekistonda IZNU2002, MICS 2000, PMDU1996 tekshirishlarida (BDSST ko‘rsatkichlari bo‘yicha), O‘Z.Resp. SSV №574 buyrug‘i bo‘yicha SSV ma’lumotlari bo‘yicha o‘rganilib kelingan, undagi ko‘rsatkichlar o‘zaro farq qiladi (2-3barobar katta).

Hamma ko‘rsatkichlarni 2/3 qismini ertangi neonatal o‘limga (chaqaloq hayotining birinchi xaftasiga) to‘g‘ri keladi.

Butun dunyo sog‘lijni saqlash tashkiloti ko‘rsatmasi bo‘yicha 5yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limini 40%-ni yangi tug‘ilgan chaqoloqlarni o‘limi tashkil etadi. Ushbu perinatal o‘limlarni 75% neonatal o‘limga (1-xaftada), undan 1 - sutkasiga 25-45% to‘g‘ri keladi[22,26,31].

Butun dunyo sog‘lijni saqlash tashkiloti ko‘rsatmasi bo‘yicha yangi tug‘ilgan chaqoloqlarni o‘limi ko‘rsatkichlari: perinatal davrdagi o‘limga (homiladorlikni 22 xaftasidan tug‘ruqdan keyingi 1-xaftagacha - ertangi neonatal o‘lim), kechki neonatal o‘lim (8-sutkadan 28-sutkagacha), postneonatal davr 1-yil oxirigacha muddatlarni o‘z ichiga oladi.

#### **Homila va yangi tug‘ilgan chaqoloqlarning rivojlanish davrlari:**

Neonatal davr – erta (birinchi xaftha) va kechki (2-4xafta) davrlarga bo‘linadi. 5-xaftadan yil oxirigacha postneonatal davr deyiladi.

Antenatal davr (prenatal, gestastion) - zigota hosil bo‘lgan paytdan boshlab tug‘ruq boshlanishigacha bo‘lgan davr xisoblanadi,

Progenez - gametalarning shakllanishi (jinsiy hujayralarning paydo bo‘lishi va etulishi) ya’ni gametopatiyalar

Blastogenez - urug‘lantirilgandan keyin 15 kungacha ya’ni blastopatiyalar

Embriogenez - urug‘lantirilgandan keyin 16-kundan 10-haftagacha ya’ni embriopatiyalar

Fetogenez (homilalik davr) - 11 haftadan tug‘ilishgacha ya’ni fetopatiyaerta homila - 28 haftadan oldin yoki erta fetopatiyalar kech homila - 28-haftadan tug‘ilishgacha yoki kech fetopatiyalar

Intranatal davr bu tug‘ruq davridir. Postnatal davr bu tug‘ruqdan keyingi davrdir. Neonatal davrda o‘lim erta neonatal o‘lim ya’ni 7-kungacha, kech neonatal o‘lim ya’ni hayotini 8 - 28 kunlarida yuz beradi.

Haqiqiy ona qornidagi yosh homiladorlik davri deb ataladi

Antenatal o‘lim - tug‘ruq boshlanishidan oldin sodir bo‘lgan o‘lim (barcha holatlarning 80-90% da terining maseratsiyasi bilan birga keladi) xisoblanadi.

Intranatal o‘lim – bu tug‘ruq paytidagi o‘lim.

Postnatal o‘lim bu chaqaloq tirik tug‘ilgandan keyingi o‘lim.

O‘lim sanasi noma'lum bo‘lgan o‘lik tug‘ilish bu o‘lim vaqtini aniqlash mumkin bo‘lmagan holatlar (ante-, intranatal) ushbu guruhga ajratilgan[60,79, 119].

Neonatal davr – erta (birinchi xaftha) va kechki (2-4xafta) davrlarga bo‘linadi. 5-xaftadan yil oxirigacha postneonatal davr deyiladi.

Perinatal davrdagi turli patologik xolatlar, yurak kon tomirlarini tug‘ma nuqsonlari, distrofik va gipertenziv kasalliklari chaqoloqlar o‘limini katta qismini tashkil etadi[17,34,60].

Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni yurak - kon tomirlari kasalliklarini sabablari:

-tug‘ma rivojlanish nuqsonlari,

-nasliy moillik,

- yuqumli kasalliklar,

-norastional oziklanish,

- hissiy labilligi, stress holatlariga chidamsizligi va b.

Yangi tug‘ilgan chaqoloqlarni o‘limi sabablari:

1.Ona yoki yo‘ldoshi holati yoki kasalliklari, homiladorlik patologiyalari va tug‘ruq patologiyalari

2.Homilani holati va kasalliklari [34,78,79,80].

## **Jadval -1**

**Homiladorlik davri va ertangi bolalar o‘limi xolatlari klassifikastiyasi, terminologiyasi.**


	5 yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limi		
	Yangi tug‘ilgan chaqoloqlarni o‘limi		Bolalar o‘limi
	Neonatal o‘lim		Postneonatal o‘lim
	Erta neonatal o‘lim	Kechki neonatal o‘lim	
	Perinatal o‘lim		
Bola tushib ketishi yoki abort	O‘lik tug‘ilish		
Xomilani o‘limi			

Birinchi guruh sabablarga yo‘ldosh, kindik, uni qobig‘ida yuzaga keladigan og‘irlashuvlar – yo‘ldoshni muddatdan ilgari ko‘chishi, kindikni patologiyasi va b., toksikozlar, qog‘onoq suvini erta chiqishi, tug‘ruqni og‘irlashuvlari va b. kiradi.

Perinatal o‘limlarni sabablari rivojlanayotgan davlatlarda 22,5% asfiksiya va tug‘ruq shikastlari, 12,7% yurak kon tomirlarini tug‘ma nuqsonlari, distrofik va gipertenziv kasalliklari, 1,4% infekstiyalardir[17,34, 46,60].

**Diagramma-1.**

**Bir yoshgacha bo‘lgan yangi tug‘ilgan chaqoloqlarni o‘limini kasalliklar  
bo‘yicha taqsimlanishi(10000 tirik tug‘ilgan chaqoloqga nisbatan)**



Rivojlangan davlatlarda yurak qon tomirlarini tug‘ma nuqsonlari, distrofik va gipertenziv kasalliklari ko‘proq, kamrok intranatal sabablar va infekstiyalar bo‘ladi.

Neonatal davrdagi o‘limlarni asosiy sabablari – rivojlanishni yurak kon tomirlarini tug‘ma nuqsonlari, distrofik va gipertenziyv kasallikkari, tug‘ruq shikastlari, yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni pnevmoniysi, tashki ta’sirlardir (oziqlanish, qarish, tibbiy yordamni o‘z vaqtida berish, shikastlar). Bular ijtimoiy holatga va sog‘liq saqlash tizimini tashkillashtirishga bog‘liq bo‘ladi.

Amerika patologlari ma’lumotlariga ko‘ra yangi tug‘ilgan chaqaloqlar orasida yurak nuqsonlari 0,9%, Rossida 1% dan ko‘proq holatlarda uchraydi. O‘zbekiston Respublikasi patologik anatomiya markazi ma’lumotlari bo‘yicha yurak nuqsonlari 4%-ni tashkil etadi. Shulardan 70% da qorinchalararo to‘sinq, 11%-da bo‘lmachalar o‘rtasidagi to‘sinq nuqsoni, 4-5% Fallo tetradasi va uch kamerali yurak, 2%da endokard fibroelastozi va Batolov yo‘lini ochiq qolganligi uchraydi [5,38, 60,74].

Tug‘ma yurak nuqsonlarini paydo bo‘lishga homiladorlikda ona qornidagi 3-11 xafiasi orasida embrionga patogen omil ta’siriga bog‘liq. Shu vaqtagi virusli kasalliklar (qizilcha kasalligi) turli yurak nuqsonlarini – arterial yo‘lning ochiq qolishi, o‘pka arteriyalarini gipoplaziyasi, o‘pka arteriyasi og‘zi stenozi, yurak to‘sqliari kamchiligi, Fallo tetradasi kabi nuqsonlarni yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Bu nuqsonlar patogenetik ikki xil gemodinamik o‘zgarishlarni, gipoksiyalarni yuzaga keltiradi: stenozsiz o‘tadigan tug‘ma yurak anomaliyalari (tug‘ma yurak nuqsonlarining oq xili) - qorinchalararo to‘sinq nuqsoni, bo‘lmalari o‘rtasidagi to‘sinq nuqsoni, Batolov yo‘lining ochiq qolganligi, aorta koarktasiyasi, aortaning yakka stenozi, o‘pka stvolining yakka stenozi, toj artiyalarini anomaliyalari. Ularda gipoksiya kech kuzatiladi, o‘pka gipertenziyasi va “o‘pka - yurak” erta rivojlanadi, Ikkinci gurux – sezilarli stenozi bilan o‘tadigan tug‘ma yurak nuqsonlari – bunda qon o‘ngdan chapga harakatlanib, kichik qon aylanishidan oz miqdorda o‘tadi, qonni oz qismi oksigenastiyalanadi, stianoz erta rivojlanadi. U o‘pka arteriyalari va aortani to‘la transpoziyasida, Fallo tetradasida kuzatiladi[22, 32, 33,58].

Samarqand davlat tibbiyot instituti mutaxassislari (2020) yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda yurak-qon tomir tizimining funksional holati va markaziy asab

tizimining perinatal shikastlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishib, markaziy asab tizimini perinatal shikastlanishi natijadasida yurakning funksional buzilishlarining ko‘payishini qayd etishgan. Tug‘ruqdan oldingi va intranatal gipoksiyalar yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda kardiyomiyositolarga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, uzoq muddatli post-gipoksik shikastlanish kardioskleroz o`choqlarini shakllanishiga, miokard distrofiyasi, funksional kardiomiopatiya va miyokardning elektr beqarorligiga sabab bo`lishini aniqlashgan. Bu tekshirishlarda bemor chaqoloqlar 2 guruhga bo‘lingan: 1-guruh - markaziy asab tizimi o‘rtacha darajada shikastlangan 50ta yangi tug‘ilgan chaqaloq, ulardan 20tasi (40,0%) o‘g‘il bolalar va 30tasi (60,0%) qizlar; 2-gurux jiddiy shikastlangan 15 nafar bola, ulardan 8 nafari (60,0%) o‘g‘il bolalar va 7 nafari (40,0%) qiz bolalar bo`lgan. homiladorlik davri 38-40 hafta, vazni 2900-4400g, tana uzunligi 41-47 sm. chaqoloh tug‘gan - 35 onada asoratlangan akusherlik tarixi, 45 nafar yangi tug‘ilgan chaqaloqda patologik tug‘ruq jarayoni, homilaning qorin bo‘shlig‘i bilan chigallashishi aniqlangan. Ona qornidagi asfiksiya 11tasida, homila gipoksiyasi 24 tasida kuzatilgan, 31 tasi turli darajadagi asfiksiya bilan, 8tasi intranatal infektsiyalar bilan, 19tasi bachadon gipofunksiyasi bilan tug‘ilgan. Shifoxonaga yotqizilganda barcha bolalarda markaziy asab tizimining shikastlanishi kuzatilgan, ulardan 17tasida miya to`qimasi ishemiyasi, 33 tasida esa turli lokalizatsiyadagi intraserebral qon ketishlar kuzatilib, bemorlarda nevrologik simptomlar ustunlik qilgan, shundan 38 tasida markaziy asab tizimining qo‘zg‘alish sindromi, 38 tasida depressiya kuzatilgan. 14 yangi tug‘ilgan chaqaloq yurak-qon tomir tizimining holatini aks ettiruvchi klinik va laboratoriya ko‘rsatkichlarining tahlili shuni ko‘rsatganki, 1-guruh bolalarida akrosiyanoz bilan birgalikda terining shishi 40ta, 6ta xolatda yurak tovushlari bo‘g‘iq, 17ta bemorda yumshoq sistolik shovqin eshitilgan. Yurakda sinus ritmining buzilishi kuzatilgan - ko‘pincha sinusli taxiaritmiya - 31, kamroq bradiaritmiya - 5. Shu guruhdagi barcha bolalarda qorinchalar ST-T kompleksining yakuniy qismida o‘zgarishlar bo‘lgan [15, 36, 79].

Xavfli guruhlarga nasliyliligi bo‘lgan (ota-onasida gipertoniya kasalligi, miokard infarkti va insult bo‘lgan) bolalar kiradi. Bolalarni yurak – qon tomirlarini

anatomo - fiziologik holatlari o‘rganilganda bolalarda tomirlar bo‘shlig‘ini kengligi ham katta ahamiyat tutadi [6.44.54].

Yangi tug‘ilgan chaqaloqlar murdasini tekshirishda yangi tug‘ilgan bola organizmining tuzilishi va xayot faoliyati, kattalar organizmiga nisbatan o‘zgacha anatomik, fiziologik va patalogoanatomik xususiyatlari inobatga olinadi. Yangi tug‘ilgan chaqaloqlar murdasini tekshirishda quyidagi savollarga javob topish lozim bo‘ladi:

- bola yangi tug‘ilganmi, yo‘qmi;
- homilani ona qorni ichida o‘tkazgan hayoti vaqtini aniqlash;
- etilib o‘z vaqtida tug‘ilganmi yoki chala tug‘ilganmi;
- yashashga qobiliyatlimi yoki qobiliyatsizmi; tirik tug‘ilganmi yoki o‘lik tug‘ilganmi;
- tug‘ilgandan keyin qancha yashagan;
- bola tug‘ilgandan so‘ng parvarishlanganmi, yo‘qmi;
- o‘lim sababini; qon guruhini, rezus omillarini aniqlash;

Sud tibbiyoti nuqtai nazaridan yangi tug‘ilganlik o‘ziga xos ahamiyatga ega, chunki bu tushuncha boshqa tibbiyot sohalari tushunchalaridan keskin farqlanadi. Masalan, homiladorlik nuqtai nazaridan kindik tushish davri (6-7kun) yangi tug‘ilgan bola davri hisoblanadi. Pediatrlar bu muhlatni bir oy davom etadi deb hisoblaydilar. Sud tibbiyoti tushunchasi bolaning tug‘ilgandan so‘nggi qisqa xayot davrini aks ettiradi [29,43,47,51,71,74].

### **Yangi tug‘ilganlik belgilari:**

- kindik uchi (yo‘ldoshi bilan), uning namligi;
- kindik tushgan joyning atrofida demarkastion xalqa bo‘lmashligi;
- terining burmali joylarida cho‘zinchoq pishloqsimon surtmalarining mavjudligi;
- yashil-qoramtilrangli mekoniy, ya’ni go‘dak najasining mavjudligi (yo‘g‘on ichakda, orqa teshik atrofida, sonlarning yuqori qismida);
- terining o‘ziga xos namligi va qizg‘ish rangda bo‘lishi;
- tug‘ruq shishlari, qon dog‘lari mavjudligi;

- o‘pka, me’dada (yuqori qismida) havo mavjudligi va b.

Go‘dakning yangi tug‘ilganligi faqat yuqorida sanab o‘tilgan belgilarni yig‘indisi bilan ta’riflanadi.

### **Etilib o‘z vaqtida tug‘ilganlik mezonlari:**

yangi tug‘ilgan bolaning etukligi, o‘z vaqtida tug‘ilganligi deganda bolani shunday rivojlanganlik darajasi yoki shunday belgilarning majmuasiga aytildiki, bola ona organizmidan mustaqil ravishda xayot kechirishga layoqatli bo‘ladi. Go‘dakning etukligi va o‘z vaqtida tug‘ilganligini aniqlashda homilaning bo‘yi, vazni va b. etuklik belgilari hisobga olinadi. Agar bolaning bo‘yi haqida ma’lumot bo‘lmasa, unda uning og‘irligi e’tiborga olinadi. 2500g va undan ortiq bo‘lgan bola etuk bola hisoblanadi. O‘ninchи oyning oxirida tug‘ilgan bolaning o‘rtacha uzunligi 48-52 sm.ga teng bo‘lib, og‘irligi 2,500-3,500 grammga teng bo‘ladi. Boshning aylanma o‘zunligi o‘lchami 34-36sm, boshining diametrlari - katta qiyshiq chizig‘i 12-13sm, to‘g‘ri chizig‘i 10-11sm, katta ko‘ndalang chizig‘i 8-9,5sm, ko‘krak aylanasi uzunligi 32-34sm, elkasining kengligi 11-12sm teng bo‘ladi. Bundan tashqari, etuk bolaning teri osti yog‘ qatlami yaxshi rivojlangan bo‘lib, terisi elastik sarg‘ish rangga ega bo‘ladi, faqat elkasida va orqasining yuqori qismida jun saqlanadi. Boshidagi soch qalin bo‘lib uning uzunligi 2-3 sm. dan kam bo‘lmaydi. Qulq suprasi va burun tog‘aylari qotgan, egiluvchan yaxshi rivojlangan bo‘ladi. Pastki jag‘da 4ta tish o‘rni ko‘rinadi. Ko‘krak bezlari shishgan bo‘lib suyuqlik ajralishi mumkin. Qo‘l panjalarining tirnoqlari qattiq va ular timoq joyi chetidan chiqib turadi, oyoq panjalarining tirnoqlari esa tirnoq joyining uchi bilan barobar bo‘ladi. Kindik qilichsimon o‘simta bilan qovuq o‘rtasida yoki ozgina pastroqda joylashgan bo‘ladi. Jinsiy a’zolar to‘g‘ri rivojlangan bo‘lib, o‘g‘il bolalarning moyaklari moyak xaltasida joylashgan bo‘ladi; qizlarning katta uyatli lablari kichik uyatli lablarini yopib turadi. Suyak qotish o‘zagi yumaloq shaklda bo‘lib, tog‘aylar qizg‘ish rangli ko‘rinadi. Uning diametri son epifizining pastki qismida 0,3-0,8 sm. ga teng bo‘ladi; tovon va panja suyaklarida 1-1,2sm-ga to‘g‘ri keladi. Ularning birinchisi 8-oyda, ikkinchisi 9- oyda paydo bo‘ladi. Kindik uzunligi 45-60 sm, yo‘ldosh og‘irligi -600g bo‘ladi. Yashashga qobiliyatlilik -

bolaning etilishiga bog‘liq. Uzunligi 40sm. dan ko‘p va og‘irligi 1000g dan ko‘p, nuqson siz, tug‘ilgan bola yashashga qobiliyatli hisoblanadi [11,25,52, 76].

Tirik tug‘ilganlik mezonlari - tug‘ilishdan oldin yoki undan keyin nafas olmagan bolalar o‘lik tug‘ilgan hisoblanadi. Agar yangi tug‘ilgan bola nafas olmasa-da, uning yuragi ishlasa, bu bola ham o‘lik tug‘ilgan hisoblanadi. Nafas olgan o‘pka plevra bo‘shlig‘ini to‘ldirib chetlari yurak atrofi xaltasiga tegib turadi; o‘pka yumshoq, uning yuzasi tekis bo‘lib, sarg‘ish qizil rangda marmardek tovlanib turadi; plevra osti o‘pka alveolalarida havo pufakchalari bo‘ladi; gistologik tekshiruvda yassilangan shaklli epiteliy mavjudligi aniqlanadi. Nafas olmagan o‘pka tashqi ko‘rinishidan go‘shtga o‘xshaydi va uncha katta bo‘lmanan holda plevra bo‘shlig‘ini to‘ldirib turadi[17,79].

Normal homilani rivojlanish vaqt 10oyga (280 kunga) teng, homilaning bo‘yiga asoslanib bolaning etuklik darajasi va uning ona qornida yashash vaqtি aniqlanadi. Agar homilaning bo‘yi 25sm. dan ko‘p bo‘lsa, raqam 5ga bo‘linadi, agar 25sm dan kam bo‘lsa, unda raqam ildizdan chiqariladi (Gaaz formulasi). Masalan, homilaning o‘zunligi 16sm bo‘lsa, uni ildizdan chiqarsak 4ga teng bo‘ladi. Agar uning uzunligi 40sm bo‘lsa, unda 40ni 5ga bo‘lganimizda 8sonini olamiz. Demak, birinchi misolda bola 4oylik bo‘lsa, ikkinchisida esa bola 8oylik bo‘ladi. Bu usuldan tashqari Boldasar - Darve formulasi mavjud. Uning yordamida bolaning ona qornida necha kun bo‘lganligi aniqlanadi. Bu formula homila uzunligini (sm) 5,6ga ko‘paytirishga asoslangan. Masalan, uning uzunligi 30sm bo‘lsa sonni 5,6ga ko‘paytirsak 168ga teng bo‘ladi. Demak, homila 168kun ona qornida yashagan. Bundan boshqa usullar - suyaklanish o‘zagini tekshirish usuli (Bexlyar yadro si), mekoniyning tekshirilishi (faqat 8 oydan keyin mekoniy tarkibida soch tolasini topish mumkin) [21.39.68.69.73].

Tug‘ilgandan so‘ng bola qancha vaqt yashaganligini aniqlash uchun bir qator belgilarga e’tibor beriladi, ulardan biri demarkastion xalqa. U 6-12 soatdan keyin paydo bo‘lib, bir kundan so‘ng tamomila shakllanadi. Kindik qoldig‘i 2-3 kunga borib quriydi va o‘rtacha 6-7 kunga borib tushib ketadi. Me’dada xavo bo‘lgan taqdirda, bola bir qancha daqiqa yashagan, agar ingichka ichakda ham topilganda

go‘dak bir soat yashagan bo‘ladi. Yo‘g‘on ichakdagи mekoniy 2- kunga borib oxirigacha chiqariladi. Kuchsiz va etilmagan bolani mekonysi 3- kunni oxirida chiqadi. Tug‘ruq shishlari 2- kunning ohiriga borib, butunlay so‘riladi, kefalogematomа esa 8-10 kungacha saqlanadi.

Go‘dak tug‘ilgandan so‘ng unga qaralganlik belgilari - bolaning kindagini bog‘lash, tanani pishloqsimon yog‘lardan tozalash, yo‘rgaklash, me’dada ona sutining mavjudligi bolaga e’tibor berilgани nishoni bo‘ladi[17,60,79].

O‘lim sabablari - yangi tug‘ilgan bolaning o‘limi uning tug‘ilishidan oldin, tug‘ilishi jarayonida yoki tug‘ilganidan so‘ng sodir bo‘lganligi e’tiborga olinadi. Homilaning ona qornida o‘lishiga yo‘ldoshning vaqtidan ilgari ajralishi, kindikning tushishi yoki qisilishi tufayli asfiksiyaning ro‘y berishi sabab bo‘ladi [9, 17,22,23].

Onaning turli kasallikkлari ham yo‘ldoshning ish faoliyati buzilishiga va homilaning nobud bo‘lishiga olib keladi. Tug‘ilish jarayonida go‘dak jarohat olishi mumkin. Ular jumlasiga, miyacha chodiri va katta o‘roqsimon o‘sintasining yorilishi, miya qobig‘i ostita yoki miya qorinchalariga qon quyilishi kiradi. Tug‘ish paytida homilaga onasi bexosdan og‘ir jarohatlar etkazishi mumkin. Masalan, u bir o‘zi bo‘lsa, tug‘ilishni tezlashtirish uchun qo‘li bilan bolaning boshidan tortib go‘dakning boshini, yuzini tirmashi mumkin. Qon quyilishi ro‘y berishi, bo‘yinni, pastki jag‘ini sindirishi mumkin. Bola o‘ldirilganiga gumon qilinayotgan bo‘lsa, yangi tug‘ilgan bola murdasini sud tibbiyoti nuqtai nazaridan tekshirish alohida javobgarlik talab qiladi [17,78,79].

Yangi tug‘ilgan chaqaloq past haroratga juda ham ta’sirchan bo‘lib, sovuqdan tez halok bo‘ladi (+5-8°S haroratda sovuqdan nobud bo‘lishi mumkin). Tug‘ilgandan so‘ng chaqaloqqa yordam bermaslik (kindikni bog‘lamaslik, yo‘rgaklamaslik va x.) ham uning o‘limiga sabab bo‘ladi [15,79].

Agar yangi tug‘ilgan chaqaloqlar murdasini sud tibbiyoti tekshirishi davomida o‘lim sababi aniqlanmasa chaqaloqqa zarur yordam berilmagan deb topiladi.

Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni o‘limi ko‘rsatkichi - sostial xolatni, aholi salomatligi, xayotining sifati, sostial – ijtimoiy rivojlanishni barometri hisoblanadi. Onalar o‘limi bilan birgalikda yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni o‘limi ko‘rsatkichi aholini reproduktiv holatini, neonatologiya, akusherlik xizmati holatini namoyon qiladi

Homila yoki yangi tug‘ilgan chaqaloqning asosiy kasalligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki asorat orqali chaqaloqning o‘limiga olib keladigan nozologik shakl hisoblanadi.

Homilaning yoki yangi tug‘ilgan chaqaloqning asosiy kasalliklarining rivojlanishida etakchi ahamiyatga ega bo‘lgan ona va yo‘ldoshning patologiyasi epikrizda va perinatal o‘lim to‘g‘risidagi tibbiy ma'lumotnomani to‘ldirishda namoyon bo‘ladi.

Asosiy kasallikni aniqlashdan tashqari, homilaning o‘ziga xos fon kasalliklari, ona kasalliklari, tug‘ish va homiladorlikning asoratlari, homilaning patologiyasi va o‘limiga olib kelgan yo‘ldosh, kindik kasalliklari ham aniqlanadi.

Butun dunyo sog‘lijni saqlash tashkiloti ko‘rsatmasi bo‘yicha yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni o‘limi ko‘rsatkichlari: perinatal davrdagi o‘limga (homiladorlikni 22 xafasidan tug‘ruqdan keyingi 1-xaftagacha - ertangi neonatal o‘lim), kechki neonatal o‘lim (8-sutkadan 28-sutkagacha), postneonatal davr 1-yil ohirigacha muddatlarni o‘z ichiga oladi.

Intranatal va yangi tug‘ilgan chaqaloqning o‘limiga olib keladigan ratologik jarayonlarning asosiy guruhlari:

I. Asfiksiya (gipoksiya) bu atama keng ma’noda homila yoki yangi tug‘ilgan chaqaloqning har qanday sabab tufayli kelib chiqqan gipoksiya holatini bildiradi. Asfiksiya homilani ona qornidaligi davrida yoki tug‘ilgandan keyin - yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda paydo bo‘lishi mumkin.

II. Tug‘ilish travmasi - mexanik kuchlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri homilaga ta’siri natijasida tug‘ilish paytida, kuch ishlatilganda homila to‘qimalarining mahalliy shikastlanishi, yorilish va sinish, qon ketishi yoki mahalliy qon aylanishining buzilishi bilan to‘qimalarning cho‘zilishi yoki ezilishi bilan namoyon bo‘ladi

(venoz dimlanish, shish, staz, tromboz). Tug‘ilish jarohatlari kuzatiladi: a) bosh suyagida, b) umurtqa pog‘onasida, v) boshqa suyaklarda, d) yumshoq to‘qimalar va e) ichki a’zolarda. Eng keng tarqalgan va eng katta tanatologik ahamiyatga ega bo‘lganlar dastlabki ikki ko‘rinishi xisoblanadi.

III. Yangi tug‘ilgan chaqaloqning gemolitik kasalligi u shish ko‘rinishida, gemolitik sariqlik, sariqlik va shishsiz anemiya, maseratsiya bilan shishsiz intranatal homila o‘limi

IV. Gemorragik kasalliklar u homilaning ichki a’zolarida diapedez xarakterdagi katta qon ketishi bilan

V. Tug‘ma anomaliyalar

VI. Yuqumli kasalliklar uni viruslar, mikoplazmalar, bakteriyalar, protozoa, zamburug‘lar keltirib chiqaradi

VII. Tug‘ma o‘smalar

VIII. Boshqa kasalliklar - bu guruhga noinfektion xarakterdagi kasalliklar kiradi, masalan, ichki sekretsiya bezlari, tug‘ma, irsiy metabolik kasalliklar va boshqalar. Hozirgi vaqtida eng ko‘p o‘rganilayotgani qandli diabet va onaning prediabetida homila patologiyasi - diabetik fetopatiyadir[42.44.81].

Oxirgi vaqtlardagi ilmiy tadqiqotlar chaqaloqlar va yosh bolalardagi og‘ir kechuvchi, kuchayib boruvchi yurak-qon tomirlari sistemasi kasalliklarini asosida mitoxondriya patologiyasi bilan bog‘liq hujayra energetikasini buzilishi, metabolik o‘zgarishlarni rivojlanishi yotishi aniqlangan. Har o‘n yilliklarda statistika ma’lumotlari bo‘yicha yurak-qon tomirlari patologiyasi bilan og‘riyotgan bolalar soni 1,5marta ortishi kuzatilmoqda. Ularni ko‘pchiligi bolalikdan nogiron bo‘lib qolmoqda. Shunga mos ravishda chaqaloqlar va bolalardagi yurak qon tomirlarini kasalliklari sog‘liqni saqlashni muhim muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda.

## **1.2. Perinatal o‘limlarning statistik xususiyatlari**

Tarixiy ma’lumotlar dinamikasi – o’tgan asr chaqoloqlar o‘limini sezilarli darajada kamayishi bilan nishonlandi. XX asrni boshlarida yangi tug‘ilgan chaqoloqlarni (1000ta tirik tug‘ilgan chaqoloqlarga nisbatan) Norvegiyada har 12-13-si, Franstiyada har 7-si, Germaniyada har 5-si, Rossiyada har 4-si o‘lgan bo‘lsa, XX asrni o‘rtasida to oxiriga qadar bu ko‘rsatkich keskin qisqardi, lekin bu o‘zgarishlar to‘lqinsimon davom etdi.

XX asrni boshida chaqoloqlar o‘limi Rossiyada juda yuqori bo‘lgan: 1901yilda 41%, 1910 yilda 38% bo‘lib, bunda tibbiy xizmatni qoloqliligi, chaqoloqlarni oziqlantirishni noto‘g‘ri tashkillashtirilganligi, xazm sistemasi patologiyalari, yuqumli va parazitar kasalliklar va b. katta axamiyat o‘rin tutgan [3.5.31,59.86].

Sobiq SSSR-ning 1920yillaridagi reformalardan so‘ng ya’ni «Onalar va bolalarni himoyalash» bo‘yicha qonunlar, dekretlarni ishlab chiqarilishi, sanitariya – oqartiruv ishlarini olib borilishi, onalar va bolalar o‘limini keskin kamaytirdi. 1926yilda chaqoloqlar o‘limi 1000ta tirik tug‘ilgan chaqoloqga 188ta to‘g‘ri kelgan 1930 yilda ekonomik va sostial o‘zgarishlar oqibatida yana chaqoloqlar o‘limi ortdi (295ta). P-jaxon urushidan so‘ng yuqumli va parazitar kasalliklarga nisbatan antibiotiklar va sulfanilamid preparatlarini keng ko‘llanishi bu ko‘rsatkichni 1940yildagi 240tadan 124taga, 1960-1970yillarda esa 26,6ga teng bo‘lib, asrni oxiriga kelib, u yana 2,5martaga kamaydi. Lekin bu ko‘rsatkich 1971–1976, 1984, 1987, 1990–1993 va 1999yillarda yana ko‘tarilishi kuzatilgan. 1990–1993 yillarda ko‘rsatkichni 17,4dan 19,9gacha ko‘tarilishi BDSST tavsiya qilgan ko‘rsatkichlarga amal qilish xisobiga bo‘ldi [3,5,18,38,48].

Tug‘ilishlar soni kamayganda yangi tug‘ilgan chaqoloqlarni o‘limi ko‘rsatkichi soni ham keskin kamayishi kuzatiladi. Davlatlarni turli hil xududlarida yangi tug‘ilgan chaqoloqlarni o‘limi ko‘rsatkichlari har hil bo‘ladi.

## **Jadval-2**

### **Turli davlatlardagi yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni o‘limi ko‘rsatkichlari**

	2008	2009	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019
Turkmaniston	38.9	37.8	36.9	36.4	36.1	36.0	36.1	36.2	36.4	36.1	36.2	36.4
Tursiya	18.0	16.8	15.6	14.6	13.6	12.7	11.9	11.1	10.5	9.8	9.2	8.6
O`zbekiston	33.5	31.3	29.2	27.2	25.3	23.5	21.8	20.3	18.8	17.6	16.5	15.6
Ukraina	11.1	10.6	10.1	9.6	9.2	8.8	8.4	8.1	7.9	7.6	7.4	7.2
Finlyandiya	2.7	2.6	2.5	2.4	2.2	2.2	2.1	2.0	2.0	2.0	2.0	1.9
Frantsiya	3.6	3.6	3.6	3.5	3.5	3.5	3.5	3.5	3.5	3.6	3.7	3.8
Xorvatiya	5.0	4.8	4.7	4.5	4.4	4.3	4.2	4.2	4.2	4.1	4.1	4.1
Chernogoriya	7.2	6.5	5.8	5.2	4.6	4.0	3.6	3.1	2.8	2.5	2.2	2.0
Chexiya	3.0	2.9	2.7	2.6	2.6	2.5	2.5	2.5	2.5	2.5	2.5	2.5
Shvestsariya	4.0	4.0	3.9	3.9	3.9	3.8	3.8	3.8	3.7	3.7	3.6	3.6
Shvetsiya	2.6	2.6	2.5	2.5	2.4	2.4	2.4	2.3	2.3	2.2	2.2	2.1
Estoniya	4.3	3.9	3.6	3.3	3.1	2.8	2.6	2.5	2.3	2.1	2.0	1.9

BMT general assambleyasi tomonidan yuritilgan «Dunyo – bolalar xayoti uchun zarur» xujjatida 2016yilgacha bu ko‘rsatkichni 2/3martaga kamaytirishga qaratilgan [24,31,37.88].

Dunyo bo‘yicha bu ko‘rsatkich o‘rtacha 1990-2016yillarda 90dan 43ga pasaydi.

Sog‘lijni saqlash tizimini rivojlantirish strategiyalari bu ko‘rsatkichni yuzaga keltiruvchi sabablarni bartaraf etishga qaratilgan.


1980-90yillarda yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni o‘limi ko‘rsatkichi miqdorini pasayishi bir yoshgacha bo‘lgan bolalarda nafas olish a’zolarini kasalliklarini, yuqumli kasalliklarni va parazitar kasalliklar miqdorini pasayishi hisobiga yuz

bergan. Oxirgi vaqtarda perinatal o‘limlarni tug‘ma rivojlanish nuqsonlaridagi va tashqi muhit ta’sirlaridagi o‘lim xolatlari ortgan [20,31,70,72].


Yangi tug‘ilgan chaqoloqlarni o‘limi ko‘rsatkichidan tashqari yana onalar o‘limi (homiladorlik davrlarida, tug‘ruqda va tug‘ruqdan keyingi davrdagi og‘irlashuvlardagi o‘lim) 100 ming tirik tug‘ilishlarga nisbatan hisoblanib, u sostial muhitning yaxshiligi va sog‘liq saqlash tizimi faoliyatini yaxshi yo‘lgan qo‘yilganligi indikatori sifatida katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Homiladorlikdagi o‘lim holatlari 2010yilda nisbatan yuqori, keyingi yillarda esa nisbatan past ko‘rsatkichlarga ega bo‘ldi[26,31,60].

### ***Diagramma-2***

#### **Turli davlatlardagi yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni o‘limi ko‘rsatkichlari**



**Diagramma-3**




Perinatal o'lim (o'lik tug'ilganlar va 7kungacha o'lган chaqoloqlar) ko'rsatkichi 2012yilgacha past, keyingi yillarda esa ko'tarilishi kuzatilgan[3,4,20,53,55].


Yangi tug'ilgan chaqoloqlarni o'limi ko'rsatkichi 2012yilda San-Marinoda 1,6%, Islandiyada 1,7%, Rossiyada 9,8%, O'zbekistonda 41,5%, Markaziy Afrika davlatlarida 108,2-119,2%gacha bo'lgan. 2014yilda esa u Afg'onistonda 117,3%, O'zbekistonda 19,8%, Rossiya federasiyasida 7,1%, AQSh 6,2%, Singapurda 2,5%, Yaponiyada 2,1%, Monakoda 1,8% bo'lgan [4,15,31,38,65].

*Diagramma-4*

### Turli davlatlardagi yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni o‘limi ko‘rsatkichlari



*Diagramma-5*



### Onalar (100000) va perinatal o‘lim (1000ta tug‘ilishga) holatlarini ko‘rsatkichlari

O‘zbekistonda yangi tug‘ilgan chaqoloqlarni o‘limi ko‘rsatkichi 2002yilda 16,7%, 2016yilda 11,4% bo‘lgan. 2016yilda perinatal o‘limlardan – 24,4% nafas olish a’zolarini kasalliklaridan, 10,2% yurak - qon tomirlari va b. tug‘ma anomaliyalardan, 5,6% shikastlar va yuqumli kasalliklardan bo‘lgan. 2000-2013yillarda skrining – markazlarni ochilishi, ta’mintonini yaxshilanishi chaqoloqlar o‘limini keskin kamaytirdi.

O‘zbekistondagi perinatal o‘limi ko‘rsatkichi 1990yilda-51%, 2000-46%, 2010-34%, 2016-29% pasaygan.

2004-2016yilda O‘zbekistonda neonatal o‘lim miqdori 408(14,6ming) qisqardi. Ya’ni 6,2ga, o‘rtacha ko‘rsatkich 23%ni tashkil etdi. O‘zbekistonda neonatal davrdagi o‘lim maksimal 2004 va 2010yillarda 15,3ming, minimal 2016yilda 13,7ming bo‘ldi. 2016yilda neonatal o‘lim darajasi O‘zbekistonda 20 o‘rinda bo‘lib, o‘sish tempi 2,38%ga teng bo‘ldi.

Yangi tug‘ilgan chaqoloqlarni o‘limi ko‘rsatkichi darajasi o‘g‘il bolalarda 1000ta tirik tug‘ilganga 16,6%, qiz bolalarda 13,1%ga teng bo‘lgan.


Bir yoshgacha o‘lim ko‘rsatkichi - o‘rtacha 0,034%, qizlarda 0,029%, o‘g‘il bolalarda 0,039% ga teng bo‘lib, u 1990yilda 0,064%, 2000yilda 0,054 %, 2012yilda 0,035%, 2013yilda 0,034%ni tashkil etgan. 100000 axoliga nisbatan 1yoshgacha o‘lim o‘rtacha 3320, qiz bolalar 2829, o‘g‘il bolalar 3810 ga teng bo‘lgan[15,30,31].

### 1.3. Yurak qon-tomirlar sistemasi patologiyalaridagi perinatal o‘limlarning xususiyatlari

Embrion rivojlanishini dastlabki 3 oyida nuqsonlar yuzaga keladi:

Normada xomiladorlikni dastlabki 6- xafatasida yurak bo‘lmachalari (3 kamerali yurak), 2-oy oxirida qorinchalar aro to‘sinq (4 kamerali yurak), 3-oyida mushak to‘qimasi, atrioventrikulyar va sinotrial tugunlar shakllanadi.

Yurak urishida sistolik hajm-70 ml, bir kunda taxminan 5000 l. suyuqlik xarakatlanadi.



Rasm -1. Yurakning normal makroskopik manzarasi (bo‘lmachalar va qorinchalar, ulardan chiqayotgan qon tomirlar)

Tug‘ma yurak nuqsonlari - bu tug‘ilishdan boshlab mavjud bo‘lgan yurak tuzilmalari va / yoki asosiy tomirlarning holati va morfologiyasidagi anomal o‘zgarishlar bo‘lib, ularning intranatal rivojlanish davrida buzilish yoki to‘liq rivojlanmaganligi natijasida kelib chiqadi. Ular yurak va katta-kichik qon aylanishi

doirasida qoni xarakatlanishi buzadi, chaqaloqlar o‘limining asosiy sabablaridandir[34, 58,60,67].

### **YuTN etiologik omillari:**

1. Bir genni mutastiyasi – 2%
2. Xromosom buzilishlar – 2%(1. YuTN xromosom aberrastiyalarga 5%gacha va bir genni mutastiyasiga 2-3% xolatlar to‘g‘ri keladi a) autosom-dominant b) autosom-restessiv v) X-birikkan g) aniqlanmagan tipda nasliy berilish). Genetik buzilishli YuTN izolyastiyalangan yoki turli tug‘ma nuqsonlar sindromlari tarkibida kuzatiladi: - Daun sindromi (trisomiya 21), - Patau sindromi (trisomiya 13), - Edvards sindromi (trisomiya 18), - Shereshevskiy-Terner sindromi (X0).
3. Tashqi muxit omillari – 2-4%
4. Multifaktorial(ko‘p omillilik) – 90%:
  - Dori preparatlarini qabul qilishda (tetrastiklinlar, estrogen saqlovchi preparatlar, barbituratlar, opiy preparatlari, antiaritmik ta’sirli preparatlar, tutqanoqga qarshi preparatlar, litiy preparatlari)
  - Xomiladorlikdagi infekstiyalar (qizamik virusi, gripp, gepatit V, StMV)
  - Kasbiy xavf omillari (tashqi muxitni fizik va kimyoviy omillari, oltingugurt va fosfororganik birikmalar)
  - Xaddan tashqari insolyastiya (solyariya)
  - Radiastiya, rentgen nurlanishlari
  - Yomon illatlar (alkogol, nikotin, narkotiklar)[49,78,58,60]

Tug‘ma poroklar 2 guruxga bo‘linadi: oq va ko‘k poroklar. Oq poroklarda (Botallov yo‘li, qorincha va bo‘lmacha aro to‘sinq nuqsoni) - qon chapdan o‘nga tashlanadi, aortaga kam qon keladi – bemorlar rangi oqimtir rangda bo‘ladi [80,82,83].

Ko‘k poroklarda (Fallo tetradasi) qon o‘ngdan chapga tashlanadi aortaga venoz qon qo‘shiladi va bemorlar rangi stianotik bo‘ladi.

Oq poroklar gemodinamikasi.

Qon chapdan o'nga tashlanganligi sababli o'pkaga ko'p qon keladi (gipervolemiya) va gipertenziya rivojlanadi. O'pkalar shunt sifatida ishlaydi. Porok oo'irligi tashlangan qon xajmiga bog'liq KAD>BAD>BY. Gipertenziya oshganda qon chapga tashlanishi mumkin (Eyzenmenger sindromi). O'ng kameralar kattalashi qon xajmi va gipertenziyaga bog'liq. Chap kameralar kattalashishi qaytgan qon xajmiga bog'liq bo'ladi.

O'pka arteriyasini pulsastiyasi kuchayadi. Aorta pulsastiyasi BAD va KAD kamayadi, BYda ko'tariluvchi aortaniki kuchayadi. BYda o'ng kameralar faqat gipertenziya rivojlanganda kattalashadi. BAD asosiy o'zgarishlar yurakni o'ng tomonida ro'y beradi, o'ng qorincha yurakning chap konturini hosil kilishi mumkin, KAD-da ko'pincha hamma kameralar kengayadi.

Fallo tetradiasi gemodinamikasi.


1)yuqori KAD 2)o'nga siljigan aorta (ikkala qorinchadan qon oladi) 3)o'pka arteriyasi stenozi 4)o'ng qorincha gipertrofiyasi. Qon sistolada o'ng qorinchadan chap qorinchaga, aortaga va o'pka arteriyasiga ketadi, o'pkaga qon kam boradi (gipovolemiya), o'pka arteriyasi toraygan bo'ladi.

pentada = tetrada + BAD, triada = tetrada - 1) - 2) + BAD


Yurak rentgenologik oyok kiyim (botinka) shaklida ko'rindi, o'ng qorincha yurakni chap konturiga chiqadi, to'sh suyagi bo'rtishi mumkin (yurak bukiri)[84,85,87].

XKT-10 da ular Q20- Q25 bilan kodlanadi. Yurakning tug'ma nuqsonlari yangi tug'ilgan chaqoloqlar o'limi bo'yicha 3-o'rinni egallaydi, xozirgi vaqtida 100dan ortiq nuqsonlar o'rganilgan. Ulardan qorinchalar o'rtasidagi nuqsonlar 50%ni, bo'lmachalar o'rtasidagi va aortadagi nuqsonlar 15%ni tashkil etadi[26,31].


### Xomiladagi qon aylanishi sistemasi



### Yangi tug'ilgan chaqoloqni qon aylanishi sistemasi



**Rasm -2. Xomila va yangi tug'ilgan chaqoloqlarning yurak-qon tomirlarida qon aylanishining sxemasi.**



**Rasm -3. Yurak qon tomirlari faoliyati.**

**Katta va kichik qon aylanishi boshqarilishi.**

**Yurakning faoliyati:** Inson yuragi - bu muskul a`zo bo`lib, qon tomirlarida qonni oqishini ta`minlaydi. To`qimalardan kislorodga kambag‘al bo`lgan qon o`ng bo`lmachaga, keyin o`ng qorinchaga xarakatlanadi. O`ng qorincha bu qonni o`pka arteriyasi va o`pkaga xaydardi. O`pkaga qon kislorodga to`yinadi. Yurak qisqarishi sikli - bo`lmachalar 0.1sek., qorinchalar 0.3sek.-da qisqaradi, pauza - 0.4sek davom etadi. Aorta - bu asosiy tomir bo`lib, undan qon butun organizmga tarqaydi. Kislorodga to`yingan qon chap bo`lmacha, keyin chap qorinchaga xarakatlanadi. Chap qorincha qonga to`lganidan sung qisqayadi, katta kuch bilan qonni aortaga xaydaydi. Yurakda qon xaydalishi, nasosga o`xshab bo`shashish va qisqarishda xarakatlanadi[58,60].

### **Tug‘ma yurak nuqsonlarini klassifikastiyasi**

#### **(L. Bokeriya va xammualliflari)**

Qon oqimida qarshilik bo‘lgan nuqsonlar (aorta koortastiysi, aortal qopqani stenozi, o‘pka arteriyasi qopqasini stenozi, mitral qopqani stenozi, o‘pka arteriyalari shoxobchalarini stenozlari)

Qopqalarni nuqsonlari (atrio-venntrikulyar qopqani rivojlanishini chegaralangan buzilishi, mitral, trikuspidal qopqalarni etishmovchiligi yoki stenozlari, aortal va o‘pka arteriyalari qopqalarini etishmovchiliklari).

Yurakning toj arteriyalarini nuqsonlari (tojtomirlari shoxobchalari ajralishini anomaliyasi, koronar-yurak fistulalari)

Yurak tug‘ma nuqmonlarini sindromal klassifikastiyasi:

1. Asosan arterial gipoksemiya bilan boruvchi YuTN (surunkali gipoksiya, gipoksik xurujlar, gipoksik status)- venoz qonni shuntlanishi xisobiga, o‘pkada qonni aylanishini pasayishi xisobiga, kichik va katta qon aylanish doirasini ajralishi oqibatida, aortal tirkishni berkilishi oqibatida kelib chiqadi.


2. Asosan yurak etishmovchiligi bilan boruvchi YuTN (o‘tkir va surunkali yurak etishmovchilgi, kardiogen karaxtlik) – xajmiy zo‘riqish natijasida, qarshilik ortishi natijasida, miokardni shikastlanishi natijasida, aortal tirkishni berkilib qolishi natijasida yuza keladi.

3. Asosan yurak ritmi buzilishi bilan boruvchi YuTN (doimiy taxikardiya, to‘liq AV blokada, paroksizmal taxikardiyalar) [58,60]

**Jadval-3**

**YuTN klassifikasiyasi VPS (Marder bo‘yicha)**

<b>Gemodinamikani buzilishi</b>	<b>Sianozsiz</b>	<b>Sianoz bilan</b>
Kichik qon aylanishini to‘yishini bilan	Aortal qopqani ochiqligi, bo‘lmachalar aro to‘sinqni nuqsoni, qorinchalararo to‘sinqni nuqsoni, atrioventrikulyar kommunikastiya	Eyzeninger kompleksi, umumiyl arterial stvol
Kichik qon aylanishini to‘yinmasligi bilan	O‘pka arteriyasini chegaralangan stenozi	Fallo kasalligi, uch tabaqali qopqani atreziyasi
Katta qon aylanishini to‘yishini bilan	chegaralangan aortal stenoz, aorta koortkastiyasi	
Gemodinamikani buzilishisiz	Aorta yoyishini anomal joylashuvi, qorinchalar aro to‘siq defekti, destrokardiya	



**Rasm - 4.** Umumiy arterial stvol. Normal xolati. Bu yurak nuqsoonida yurak asosidan o`pka va koronar, sistemali qon aylanishini ta`minlovchi bitta qon tomir chiqadi. Aortal va o`pka arteriyalari alohida shakllangan, lekin bitta sopsa bilan birlashgan. Hamma yurak nuqsonlari ichidan 1.1%ni, kritik nuqsonlar ichida 3%ni tashkil etadi. O`pka arteriyasi qisqa o`pka stvolidan chiqadi. O`pka arteriyasi stvolni orqa devoridan alohida chiqadi Bir yoki ikkalov o`pka arteriyasi stvolni yon devoridan chiqadi.

### YuTN rivojlanish bosqichlari

Birlamchi moslashish bosqichi-bolaningtanasi nuqson tufayli qon aylanishining buzilishiga moslashadi. Bu miokard tuzilmalari faoliyatining intensivligining oshishi bilan tavsiflanadi. Gemodinamik buzilishlar bilan dekompensiya osongina rivojlanishi mumkin. Yosh bolalarda hatto nisbatan oddiy anatomik nuqson (ochiq aortal tirqish, yurakning qorinchalararo nuqsoni) ham juda qiyin bo'lishi mumkin.

Nisbiy kompensiya bosqichi- odatda 2-3 yillik kasallikdan keyin paydo bo'ladi. Morfologik jihatdan bu jarayon gipertrofiya va yurak tuzilmalarining nisbatan barqaror giperfunksiyasi bilan birga keladi, ammo shu bilan birga

metabolik kasalliklar asta-sekin rivojlanib, yurakning tuzilishi va regulyastiyasining o'zgarishiga olib keladi.

Ushbu bosqichning davomiyligi turlicha bo'lishi mumkin.

Terminal bosqichi-kompensastiya imkoniyatlar tugaganda, miokard eskirganida va yurakning tartibga solish mexanizmlari tugaganda sodir bo'ladi.

Morfologik jihatdan yurak mushaklari va turli a'zolarda distrofik va degenerativ o'zgarishlarning rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Kasallikning uchinchi bosqichi bemorning o'limi bilan tugaydi.

Birlamchi moslashish bosqichi-bolaning tanasida YuTN tufayli buzilgan gemodinamikaga moslashish. Bu miokard tuzilmalari faoliyatining intensivligining oshishi bilan tavsiflanadi.

Nisbiy kompensastiya bosqichi gipertrofiya va nisbatan barqaror giperfunkstiya bilan birga keladi, ammo metabolik o'zgarishlar asta-sekin rivojlanib, yurakning tuzilishi va regulyastiyasining o'zgarishiga olib keladi.

Ohirgi bosqich-morfologik va funkstional jihatdan turlicha -kardioskleroz, miokardning eskirishi va yurakning tartibga solish mexanizmlari buzilishlari bilan namoyon bo'ladi [58,60,74].

Yurak kamerlari dilatastiya yoki gipertrofiya tufayli kattalashishi mumkin. Dilatasiyada yurak xajmi kattaroq bo'ladi. Dilatastiya va gipertrofiya doim birga bo'ladi. Stenozlarda ko'prok gipertrofiya bo'ladi – to'siq bo'lganda (yurak uncha katta bo'lmaydi), etishmovchiliklar ko'proq dilatasiyada bo'ladi – qon xajmi ko'payganda (yurak nisbatan katta bo'ladi). Gipertrofiya dekompensasiyada dilatasiyaga aylanadi.

Bo'lmacha va qorincha aro klapanlar nuqsonlari. Qorincha kattalashsa sistolada qopqalar yaxshi yopilmaydi, nisbiy etishmovchilikga olib keladi. Qorincha kengaysa keyinchalik bo'lmacha xam kengayadi.

### **Yurak patologik konfigurastiyalari**

Mitral konfigurastiya – mitral poroklarda uchraydi,

Aortal konfigurastiya – aortal poroklarda uchraydi.

Miopatik konfigurastiya – miokardit va perikarditlarda uchraydi.

## 1. Mitral konfigurastiya belgilari.

- chapdan o‘pka arteriyasi va chap bo‘lmacha yoylari kattalashishi
- taliya tekislashgan yoki bo‘rtgan
- chap qorincha kichik (MS) yoki kattalashgan (ME)
- aorta kichik (MS) yoki normal (ME)
- o‘ngdan o‘ng bo‘lmacha yoyi kattalashgan
- atriovazal burchak yuqoriga siljigan
- ME da chap bo‘lmacha yoyi yurakning o‘ng konturiga chiqishi mumkin.
- Qizilo‘ngach MSda kichik (6sm-gacha), MEda katta radius bo‘yicha siljiydi

## 2. Aortal konfigurastiya belgilari.

- chapdan pastga tushuvchi aorta normal (AS), kattalashgan (AE).
- taliya chuqur
- o‘ngdan ko‘tariluvchi aorta kattalashgan
- atrivazal burchak pastga siljigan

## 3. Miopatik konfigurastiya

- yurak ikkala tomonga keskin kengaygan, trapeстия yoki uch burchak shaklida
- yoylar ko‘rinmaydi
- aorta kichik
- yurak urishi sust

Yurak kasalliklarida yurakning funkstional holati

1. tinch yurak – MS (yurak qisqarishi va aorta pulsastiyasi sust)
2. gipermobil yurak – ME (yurak qisqarishi chuqur)
3. taranglashgan yurak – AS (amplituda chuqur chastotasi kam bradikardiya, ko‘tariluvchi aorta pulsastiyasi kuchaygan)


4. raqsga tushuvchi yurak – AE (yurak qisqarishi va aorta pulsastiyasi keskin kuchaygan)

5. koromislo simptomi – ME

6. ildizlar o‘yini – ok poroklar

Qon xajmi ko‘p bo‘lsa yurak yaxshi uradi, kengaygan kamera qon tomir pulsastiyasi ham kuchayadi.

Yurakning tug‘ma nuqsonlarini sabablari: xromosomalardagi buzilishlar -5%, bitta genni mutastiyasi -3%, yurak-qon tomir tizimi shakllanishida xatar omillarini ta’siri (alkogol, dori moddalar (gidantoin, trimetadoin), litiy preparatlari, amfitamin, progestagenlar, rentgen nurlari va b.), ko‘p omilli – poligen avlodga berilish -90%, ular dominat yoki restessiv tarzda beriladi. Shuningdek turli virusli, bakterial yuqumli kasalliklar (masalan qizilcha), metaboltik kasalliklar (qandli diabet, fenilketonuriya), biriktiruvchi to‘qimani sistemali kasalliklari va b. [15,58,60,79]



**Rasm - 5.** Yurak kameralarini anomaliyalari.

1-o‘ng qorinchani gipoplaziysi, 2-chap qorinchani gipoplaziysi.

Dunyoda yurak tug‘ma nuqsonlari keng tarqalgan kasallik bo‘lib, barcha tug‘ma nuqsonlarning qariyb 30%-ni tashkil etib, xar 1000 ta tug‘ilgan chaqaloqlarga 6-8 ta to‘g‘ri keladi, ularni 25%- ni jarroxlik amaliyotiga muxtojdir, asoratidan o‘lim ko‘rsatkichi baland. Adabiyot ma’lumotlari yurak

tug‘ma nuqsonini tarqalish ko‘rsatkichi turli mamlakatlarda 1000 chaqaloqqa 6-8 tadan rivojlanayotgan davlatlarda 8-12 tagachani tashkil etishini ko‘rsatadi.

Rivojlangan davlatlarda AQSh, Yevropa davlatlarida yurak tug‘ma nuqsonini skrining tekshiruvi yuqori darajada tashkil etilganligi uchun ushbu ko‘rsatkich 1000ta chaqaloqdan 4-6 xolatni tashkil etib, aksariyat xomiladorlikni tugatishga tavsiya etiladi, Rossiya Federatsiyasi va MDX davlatlarida ushbu ko‘rsatkich 1000 ta chaqaloqdan 6-12 (O‘rtal Osiyo davlatlarida 1000 ta tug‘ruqqa 12-24ta xolat) gachani tashkil etadi (Zinkovskiy M.F. 2016 y.). Onasida preeklampsiya o‘tkazgan chaqaloqlar yuragi morfologik, morfometrik o‘zgarishlari o‘rganilgan (X.Z. Tursunov, E.A. Eshbauev 2018y). Go‘daklar o‘limi va nogironligi rivojlanishida yurak tug‘ma nuqsonlari katta ahamiyatga ega, ularning uchrash darajasi oxirgi yillarda 22%-gacha ko‘tarilmoqda[15.30].

Oxirgi 100 yillikda YUTN uchrash darajasida ancha o‘sish kuzatilgan, 1930-1934-yillarda 1000ta chaqaloqdan 0,6ta bo‘lgan bo‘lsa, 1995-yilga kelib 9,1 tagacha ko‘paygan [7.31.79]. Yurak tug‘ma nuqsonlarini hisobga oladigan Yevropa jamiyati ma’lumotlari bo‘yicha 2010-2014-yillarda 8,1tani tashkil qilgan [2,5].

YUTN uchrash darajasida geografik jihatdan har xil ko‘rsatgich aniqlangan. Eng yuqori ko‘rsatgich Osiyo davlatlarida, ya’ni 1000/9,3 tashkil qilgan. Xitoy davlatida YUTN uchrash darajasi 2009-yilda 1000/8,2 bo‘lgan, bunda tirik tug‘ilgan bolalarda 6,7 o‘lik tug‘ilganlarda 168,8 tagacha uchragan. YUTNlari orasida bo‘lmachalar oralig‘i devori nuqsoni 34%, aorta tomiri ochiqligi 24%, qorinchalar oralig‘i devori nuqsoni 11%ni tashkil qilgan [93]. Hindistonda 2014-yil hisoboti bo‘yicha YUTN yangi tug‘ilgan chaqaloqlarning 1000 tasidan 19 tasida uchragan, bundan qorinchalar oralig‘i devori nuqsoni 33%, bo‘lmachalar oralig‘i nuqsoni 19%, Fallo tetradasi 16%-ni tashkil qilgan [1,84,92]. Hozirgi kunda tug‘ma nuqsonlarni monitoring qiladigan dunyoda ikkita xalqaro tashkilot mavjud. EUROKAT tashkiloti 21ta Yevropa davlatlaridan 35ta regional registrlardan tashkil topgan [26,31,60,79].

Yurak tug‘ma nuqsonlarining 90dan ziyod turi mavjud, aksariyati bir-biri

bilan qo'shilib keladi [84]. Quyidagi yurak tug'ma nuqsonlari aksariyat hollarda ayollarda uchraydi: arterial protokning ochiqligi, bo'lmachlar oraliq devor nuqsoni, qorinchalar oraliq devor nuqsoni, triada Fallo, o'pka rateriyasi kirish sohasi stenozi, yurak o'ng qorincha gipertrofiyasi[35,61]. O'g'il bolalarda uchraydiganlari: aorta stenozi, aorta koarktatsiyasi, magistral tomirlar transpozitsiyasi, o'pka venalari nuqsoni, arterial protok ochiqligi.


### **Ortirilgan poroklar gemodinamikasi**

Mitral stenoz. Sabablari: revmatizm, shikastlar, infekstion endokardit. Gemodinamikasi: qon oqimida qarshilik → o'ng bo'lmacha qisqarishini kuchayishi → o'ng bo'lmachani gipertrofiyasi → qon oqimida qarshiligi → chap chap bo'lmacha gipertrofiyasi – chap bo'lmacha dilatasiyasi – o'pkada qon dimlanishi – Kitaev refleksi – arterial gipertenziya – o'ng qorincha gipertrofiyasi – dilatasiyasi – nisbiy 3 tabaqali klapan etishmovchiligi – o'ng bo'lmacha dilatasiyasi – katta qon aylanish doirasida qonni dimlanishi. Aorta va chap qorincha qon ozligi tufayli gipoplastik bo'ladilar. Mitral stenozda yurak katta bo'lmaydi lekin o'pkada o'zgarishlar erta boshlanadi (xos).


Mitral qopqa etishmovchilik. Sabablari:revmatizm, ateroskleroz, septik endokardit, yurakni shikasti

Gemodinamikasi: o'ng bo'lmachada bosimni ortishi → o'ng bo'lmachani gipertrofiyasi, keyinchalik dilyatastiysi → o'pkani passiv (venoz) gipertenziyasi, chap qorincha dastlabida gipertrofiyalanadi, keyinchalik dilatastiyalanadi[22,34,58,60].

Sistolada qonni bir xajmi bo'lmachaga qaytib boradi va diastolada yana qorinchaga tushadi. Bu qon aortaga chiqolmaydi va ortiqcha yoki o'lik qon xajmi deb ataladi. Bu o'lik qon xajmi bo'lmacha va qorincha aro ballotastiya bo'ladi, vaqt o'tgan sari ko'payadi va bo'lmacha va qorinchani dilatastiysiga olib keladi. Dekompensastiya va o'pkadagi o'zgarishlar nisbatan kech bo'ladi. Chap bo'lmacha anevrizmatik kengayadi.



**Rasm - 6.** Mitral qopqani nuqsonlari.



**Rasm - 7.** Mitral qopqani nuqsonlari.

Aortal stenoz. Aortal klapan teshigi torayishi – chap qorincha gipertrofiyası – ko'tariluvchi aorta postenotik kengayishi. Dekompensastiyada chap qorincha

dilatasiyasi – nisbiy mitral etishmovchiligi (aortal porok mitralizasiyasi) va so‘ng mitral etishmovchilik kuzatiladi.

*Sabablari:* Revmatizm, infekstion endokardit, skleroz, sifilis

Gemodinamikasi: bosimni zo‘riqishi → chap qorinchani gipertrofiyasi va giperfunksiyasi bilan kompensastiyalanishi → qon oqimida qarshilik ortishi → chap qorincha qisqarishini ortishi → uni gipertrofiyasi → chap qorinchani gipertrofiyasi → distrofiya [75,77,78].


Aortal etishmovchilik. Aorta va chap qorincha o‘rtasida ortiqcha qon ballotastiya bo‘ladi va ularning dilatasiyasiga olib keladi. Aortani ko‘tariluvchi va pastga tushuvchi qismlari kengayadi. Mitralizastiyada mitral etishmovchilik qo‘siladi va porok mitral etishmovchilik sxemasi bo‘yicha rivojlanishni davom etadi.

*Sabablari:* revmatizm, infekstion endokardit, ateroskleroz, autoimmun kasalliklar

Gemodinamikasi: chap qorinchani gipertrofiyasi va giperfunksiyasi xisobiga kompensastiyasi, xajmini zo‘riqishi → diastola davrida qrnni qorinchaga qayta xarakatlanishi → chap qorinchani gipertrofiyasi va dilyatasiyasi → miokardni distrofiyasi → chap qorincha tipidagi dekompensastiya → keyinroq o‘ng qorincha tipidagi dekompensastiya [12,34,58,67,78].

Aortal tirqishni ochiqligi aorta va o‘pka arteriyalarini bog‘lovchi tomir bo‘lib, xomilada normal gomeostazni ta’minlaydi, xomiladorlik muddati tugashiga mos berkilib ketadi. Berkilmaganda gipervolemiya, o‘pka gipertenziyasi, o‘pka arteriyasini, chap bo‘lmachani vaa ikkala qorinchalarni konusini ortishi belgilari bilan namoyon bo‘ladi.

Bo‘lmachalar aro to‘sinqi nuqsoni – u birlamchi va ikkilamchi bo‘lmachalararo to‘sinqi va endokardial burmalarni nonormal rivojlanishi natijasidir.



**Rasm -8.** 1.Mitral stenoz sxema.

2Aortal stenoz sxema.

Shakllari:(joylashuvi bo'yicha).


1. Bo'lmachalararo to'siqni birlamchi nuqsoni
2. Bo'lmachalararo to'siqni ikkilamchi nuqsoni
3. Oval tirkishni ochiqligi
4. Bo'lmachalararo to'siqni to'liq bo'lmasligi.

Qorinchalararo to'siqni nuqsoni – qorinchalar o'rtasida tug'ma tirkish bilan namoyon bo'ladi[40,67,79].

Aorta koarktasiyasi –aorta yoyining daxlizi, ba'zan ko'krak yoki qorin qismini tug'ma qisilishi bilan namoyon bo'ladi.


Yangi tug'ilgan chaqoloqlar murdasini tekshirishda yangi tug'ilgan bola organizmining tuzilishi va hayot faoliyati, kattalar organizmiga nisbatan o'zgacha anatomik, fiziologik va patologoanatomik xususiyatlari inobatga olinadi.

### Arterial tirkishning ochiqligi



**Rasm -9.** Atrioventrikulyar tirkishning ochiqligi.

Bo‘lmachalararo to‘sinqni nuqsoni.




**Rasm -10.** Bo‘lmachalararo to‘sinq nuqsonlarining variantlari.

Yangi tug‘ilgan chaqoloqlar murdasini tekshirishda quyidagi savollarga javob topish lozim bo‘ladi:


1. bola yangi tug‘ilganmi, yo‘qmi; xomilani ona ichida o‘tkazgan hayoti vaqtini aniqlash;
2. etilib o‘z vaqtida tug‘ilganmi yoki chala tug‘ilganmi; yashashga qobiliyatlimi yoki qobiliyatsizmi; tirik tug‘ilganmi yoki o‘lik tug‘ilganmi;
3. tug‘ilgandan keyin qancha yashagan; bola tug‘ilgandan so‘ng parvarishlanganmi, yo‘qmi;
4. o‘lim sababini; qon guruxini, rezus omillarini aniqlash[17,79];

Tug‘ma yurak nuqsonlarini paydo bo‘lishi ona qornidagi 3-11 xaftasi orasida embrionga patogen omil ta’siriga bog‘liq. Xavfli omillardan gestatsiyaning birinchi uch oyligida uchragan o‘tkir respirator virusli infeksiya eng ko‘p ko‘rsatgichni tashkil qildi, keyingi o‘rinda anemiya kasalligi ko‘p uchraganligi, undan keyin kam ko‘rsatgichda bo‘lsada sitomegalovirus va herpes virus xavfli omil sifatida uchraganligi aniqlandi.

Shu vaqtdagi virusli kasalliklar (qizilcha kasalligi) turli yurak nuqsonlarini – arterial yo‘lning ochiq qolishi, o‘pka arteriyalarini gipoplaziysi, o‘pka arteriyasi og‘zi stenozi, yurak to‘sqliari kamchiligi, Fallo tetradasi kabi nuqsonlarni yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi. Bu nuqsonlar patogenetik ikki xil gemodinamik o‘zgarishlarni, gipoksiyalarni yuzaga keltiradi: stenozsiz o‘tadigan tug‘ma yurak anomaliyalari (tug‘ma yurak nuqsonlarining oq xili) - qorinchalararo to‘siq nuqsoni, bo‘lmachalari o‘rtasidagi to‘siq nuqsoni, Batolov yo‘lining ochiq qolganligi, aorta koarktastiyasi, aortaning yakka stenozi, o‘pka stvolining yakka stenozi, toj artiyalarini anomaliyalari. Ularda gipoksiya kech kuzatiladi, o‘pka gipertenziyasi va “o‘pka - yurak” erta rivojlanadi [12,34,60,79].



**Rasm -11.** Aorta daxlizini tug‘ma stenozi. Chap qorinchadan aortaga o‘tish soxasini torayishi (klapanida, klapan ustida, klapan ostida).




**Rasm -12.** Aorta koarktasiyasi – aorta bo‘shilg‘ini lokal torayishi


Ikkinci guruh – sezilarli stenozi bilan o‘tadigan tug‘ma yurak nuqsonlari – bunda qon o‘ngdan chapga harakatlanib, kichik qon aylanishidan oz miqdorda o‘tadi, qonni oz qismi oksigenastiyaladi, stianoz erta rivojlanadi. U o‘pka arteriyalari va aortani to‘la transpoziyasida, Fallo tetradasida kuzatiladi[12,56,57,60].

Tirik yoki o‘lik tug‘ilganlikni aniqlashda emission spektral tahlil va elektroforez usullari katta ahamiyatga ega.

Yurak-qon tomirlari sistemasi tekshirilayotganda ularni o‘lchamlari (uzunligi, eni, buyi), so‘ngra og‘irligi aniqlanadi (etuk chaqaloqda yuragini og‘irligi 23-24g bo‘lib, yuragini o‘ng tomoni chap tomoniga nisbatan kattarok bo‘ladi). Qarchi bilan yurak bo‘limlari yorib ko‘riladi: dastlab o‘ng bo‘lmacha, so‘ngra o‘ng qorincha, o‘pka arteriyasi, uch tabaqali qopqa, o‘pka arteriyasi yarim oysimon qopqasi, qopqa yuzasidan o‘pka arteriyasini kengligi o‘lchanadi. Xuddi shu tartibda yurakni chap yarmi va aortasi tekshiriladi. Keyin toj tomirlari yoriladi[58,17,79].



**Rasm -13.** Aorta koarktasiyasi.



**Rasm-14.** Aorta dekompozistiyasi. O'pka arteriyalarini stenozi.

Bo'l machalararo to'siq tekshirilayotganda oval tirqish holatiga e'tibor qaratiladi (bitgan yoki bitmagan). Shu maqsadda to'siq tortilib, yorug'likda ko'riladi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda oval tirqish to'siqni markazida joylashib, diametri 0,8sm. keladi. Chaqaloq tug'ilgandan so'ng bo'l machadalardagi qon bosimini o'zgarishi (o'ngga nisbatan chapda balandroq), plastentar qon aylanishini to'xtashi hisobiga tirqish berkiladi. Batalov yo'lini o'tkazuvchanligi o'pka arteriyasidan aorta tomon zond kiritish orqali aniqlanadi [63,64,67].

Yurakni yorib ko'rish qorinchalar qalinligini va kesimdagi manzarasini aniqlash bilan yakunlanadi.

#### **1.4. Perinatal o'limlarda yurak-kon tomirlari sistemasi va boshqa ichki a'zolardagi patomorfologik o'zgarishlar**

Yangi tug'ilgan chaqaloqlarni yurak - kon tomirlari kasalliklarini sabablari: tug'ma rivojlanish nuqsonlari, nasliy moillik, yuqumli kasalliklar, norastional oziklanish, xissiy labilligi, stress xolatlariiga chidamsizligi va b.

Xavfli guruxlarga nasliyligi bo'lgan (ota-onasida gipertoniya kasalligi, miokard infarkti va insult bo'lgan) bolalar kiradi. Bolalarni yurak – qon tomirlarini anatomo-fiziologik xolatlari o'rganilganda bolalarda tomirlar bo'shlig'ini kengligi ham katta ahamiyat tutadi.

Oxirgi vaqtlardagi ilmiy tadqiqotlar chaqaloqlar va yosh bolalardagi og‘ir kechuvchi, kuchayib boruvchi yurak-qon tomirlari sistemasi kasalliklarini asosida mitoxondriya patologiyasi bilan bog‘liq hujayra energetikasini buzilishi, metabolik o‘zgarishlarni rivojlanishi yotishi aniqlangan.

Har o‘n yilliklarda statistika ma’lumotlari bo‘yicha yurak-qon tomirlari patologiyasi bilan og‘riyotgan bolalar soni 1,5marta ortishi kuzatilmogda. Ularni ko‘pchiligi bolalikdan nogiron bo‘lib qolmoqda. Shunga mos ravishda chaqaloqlar va bolalardagi yurak-qon tomirlarini kasalliklari sog‘liqni saqlashni muhim muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda [26,31,60].


Amerika patologlari ma’lumotlariga ko‘ra yangi tug‘ilgan chaqaloqlar orasida yurak nuqsonlari 0,9%, Rosssida 1% dan ko‘proq holatlarda uchraydi. O‘zbekiston Respublikasi patologoanatomiya markazi ma’lumotlari bo‘yicha yurak nuqsonlari 4%-ni tashkil etadi. Shulardan 70%-da qorinchalararo to‘sinq, 11%-da bo‘lmachalar o‘rtasidagi to‘sinq nuqsoni, 4-5% Fallo tetradasi va uch kamerali yurak, 2%-da endokard fibroelastozi va Batolov yo‘lini ochiq qolganligi uchraydi [12,34,67,70].

Dilyastastion kardiomiopatiya – bolalarni nogironligigiga olib boruvchi, tugallanishi yaxshi bo‘lmagan yurak-qon tomir sistemasini og‘ir kasalliklaridan biri, letalligi 23-60%-gacha bo‘lib, bolani 1-2yilda o‘limiga olib keladi. O‘lim ko‘rsatkichi 2-10%\_gacha. Kasallik patogenezida yurak faoliyatini neyrovegetativ boshqarilishini buzilishi, xolinergik ta’sirni etishmovchiligi, adrenergik ta’sirni haddan tashqari ta’siri bilan bog‘liq yurak ritmini gumoral va neyrovegetiv boshqariluvini desinxronizastiyasi yotadi. 70% xolatlarda keyinchalik o‘pka gipertenziyasi rivojlanadi [17,60,79].

**Eyzenmenger sindromi** - bu yurakni qaytmas chap-o‘ng shuntlanishi bilan baland o‘pka gipertenziyasi, o‘pka tomirlarini sklerozi, stianoz, ko‘plab a’zolarni shikastlashi bilan namoyon bo‘ladi.

- Qorinchalar aro to‘sqidagi katta nuqson
- Bo‘lmachalar aro to‘sqidagi katta nuqson
- Katta ochiq arterial yo‘li
- Fallo tetradasi


➤ Batalov tirqishini bitmasligi



**Rasm - 15.** Eyzenmenger sindromi. Fallo tetradasidan o‘pka arteriyalari stenozi yo‘qligi bilan farqlanadi. Siljigan uch tabaqali qopqa qonni o`ng qorinchaga qaytib xarakatlanishiga imkon beradi. Fallo tetradasidan o‘pka arteriyalari stenozi yo‘qligi bilan farqlanadi.

Gipertrofik kardiomiopatiya - miokardni nisbatan og‘ir kechuvchi, letalligi yuqori bo‘lgan kasalligi. O‘lim asosan bexosdan kuzatilib, 4-6% ni tashkil etadi. Nasliy moillik bo‘lgan bolalarda xavf yuqori bo‘ladi. Kasallik patogenezida – miokarddagи ishemik o‘zgarishlar, yurakdagi gemodinamik o‘zgarishlar va qon ketishi yo‘nalishini obstruksiyasi hisobiga o’tkir koronar etishmovchiligidagi xavfli aritmiyalar muhim ahamiyat kasb etadi [30,46,58,79].

O‘pka gipertenziyasi bolalarni nogironligiga sabab bo‘lib, o‘lim ko‘rsatkichi 12,4% ni tashkil etadi. Kasallik kechishi 2-3yil, 60% bolalar bexosdan yoki yurak dekompensasiyasidan vafot etishadi. O‘pka gipertenziyasi rivojiga ta’sir qiluvchi xavfli omillar: chap qorinchani disfunksiyasi, endomiokardni disfunksiyasini, endomiokardni elastofibrozi, o‘ung qorinchani gipertrofiyasi va dilyastasiyasi, trikuspidal regurgitasiyalardir[12,67,79].



**Rasm -16.** Normal yurak tuzilishi, yurak magistral tomirlarini to‘liq transpozitsiyasi.

Toj tomirlarni uzoq davom etuvchi vaskuliti - erta nogironlikga va bexosdan o‘limga olib boradi. Kasallik 5 yoshga bo‘lgan bolalarda ko‘proq kuzatiladi. Endemik chastotatasi 6,5-9,5%, epidemik chastotasi 121%. Bunda perinatal davrda ta’sir ko‘rsatgan xavfli omillar, koronar tomirlarni tug‘ma anomaliyalari moillikni ortttiradi [34,46,78].


Bu o‘zgarishlarga parallel ravishda nafas olish a’zolari sistemasi, me’da ichak sistemasi, siyidik tanosil sistemasi, bosh va orqa miya to‘qimalari, immun tizim to‘qimalarida turli distrofik, nekrobiotik va gemodinamik o‘zgarishlar kuzatiladi.

Yurak tug‘ma nuqsonlari etiologiyasida genetik va ekologik omillar ahamiyatli hisoblanadi. Genetik omillardan xromosomalar yoki genlarning deletsiya, dublikatsiya kabi mutatsiyalari o‘rin egallaydi. Xromosomalardan 21, 13, 18-ning mutatsiyaga uchrashi ko‘pincha yurak tug‘ma nuqsonlariga sababchi bo‘ladi. Genlardan  $\alpha$ -miozin og‘ir zanjiri mutatsiyasi bo‘lmachalar oralig‘i devor nuqsoniga olib keldai. GATA4 omili transkriptsiyasi TBX5 genom kompleksini


paydo qiladi, bu esa  $\alpha$ -miozin og‘ir zanjiri bilan o‘zaro bog‘lanib, yurakning ham bo‘lmachalar, ham qorinchalar oarliq devori nuqsoniga olib keladi. NKX2-5 omili yurak o‘tkazuvchi yo‘llari nuqsoniga bog‘liq, TBX5 Xolta-Orama sindromiga bog‘liq, TBX1 Di Djordji sindromiga bog‘liq, ushbu omillar deletsiyasi yurakning turli tug‘ma nuqsonlariga olib keladi. Ekologik omillardan asosiyulari, bu fizik mutogenlar, ya’ni ionlantiruvchi nurlanishlar, kimyoviy mutogenlardan fenol, nitratlar, benzpiren, alkogol, gidantion, litiy, talidomit; teratogen dorilardan: antibiotiklar, nosteroid yallig‘lanishga qarshi preparatlar hisoblanadi [7,18,48,62,90]. Biologik mutagenlardan: qizilcha virusi, fenilketonuriya va tizimli qizil yuguruk kasalligi sabab bo‘ladi [8, 90]. Yurak tug‘ma nuqsoni xastaliklarining patogenezida muhim o‘rin egallaydigan holat, bu homiladorlikning 1-uch oylikda, aynan 16-18-haftaligida shikastlanishdan keyin yuz beradi [14,58,60,93].

Yurak tug‘ma nuqsonlar rivojlanishida patogenetik va morfogenetik jarayonlar sifatida, yurakning u yoki bu to‘qimasining gipoplaziysi, obstruksiyasi, o‘sishdan orqada qolishi, reparativ regeneratsiyasi alohida o‘rin egallaydi [14, 22,34, 50,88]. Gipoplaziya yurak qorinchalar devorida rivojlansa o‘ng va chap qorincha miokardining to‘liq rivojlanmasligiga olib keladi. Obstruksiya nuqsonlari yurak qopoqlari, arteriya va venalarida rivojlanadi. Masalan, o‘pka arteriyasi qopqog‘i stenozi, aortal qopqoq stenozi, aorta koarktatsiyasi, ular yurak bo‘shliqlarining kengayishi va gipertoniya bilan davom etadi.

Normadagi  
bo'lmachalararo  
to'siq



Bo'lmachalararo  
to'siq anevrizmasi




**Rasm -17.** Bo'lmachalar aro to'siqni anevrizmasi. Oval botiqlik sohasida bo'lmachalar aro to'siqni o'ng tomonga bo'rtib chiqishi

#### **Jadval-4.**


#### **Homiladorlik davridagi xatar omillari ta'sirini taqsimlanishi**

Nº	Xavfli omillar	Absolyut soni	%
1	O'tkir respirator virusli infeksiya	15	31,2
2	Toksoplazmoz	3	6,3
3	Gerpes virus	5	10,4
4	Sitomegalovirus	7	14,6
5	Anemiya, 1-darajali	11	22,9
6	Surunkali pielonefrit	4	8,3
7	Autoimmun kasallik	3	6,3

Isroilov R. Mo'ydinov O (2023) tadqiqotlariga ko'ra homilador ayollarni yosh bo'yicha tahlil qilishda 31-35 yoshli ayollar eng ko'pchilikni ya'ni 33,3%, 36-40 va 26-30 yoshlilar bir xil 22,9%, 21-25 yoshlilar 14,6% va 18-20 yoshlilar eng kam 6,3% tashkil qilgan (3-jadval).



**Rasm -18.** Bo‘lmachalararo to‘siq nuqsonlarini variantlarini sxematik ko‘rinishi:a-ikkilamchi nuqson b- birlamchi nuqson v-atrioventrikulyar – kommunikastiya [49].




**Rasm -19.** Qorinchalar aro to‘siqdagi nuqsonlar

Giyasov Z.A., B.T.Xalmatovalar yangi tug‘ilgan chaqoloqlarni to‘satdan o‘limi sindromi haqida tarixiy ma’lumotlar, zamonaviy qarashlarni yoritib berishgan. Mualliflar o‘z monografiyasida yangi tug‘ilgan chaqoloqlarning

to'satdan o'limi sindromlarini tarixiy ma'lumotlarini, yangi tug'ilgan chaqoloqlarni to'satdan o'limi sindromini tushintiruvchi – immunologik, timik, infekstion, mexanik, kardial mexanizmlar va gipotezalarni, yangi tug'ilgan chaqoloqlarni to'satdan o'limi sindromini chaqoloq o'limidagi salmog'ini, Toshkent viloyati shahar va tumanlaridagi ko'rsatkichlari, yangi tug'ilgan chaqoloqlarni to'satdan o'limi sindromi, o'tkir respirator virusli infeksiyalar, pnevmoniylar chastotasi klinik belgilari, premorbid holatlar va o'lim tavsiotlari, yangi tug'ilgan chaqoloqlarni to'satdan o'limi sindromi xavf xatar omillarini matematik baxolashning diagnostik axamiyati, biologik va ijtimoiy xatarli omillar, yangi tug'ilgan chaqoloqlarni uyda to'satdan o'limi yoshga, xafka kuniga, yil fasliga, metereologik sharoitlarga bog'liq taksimlanishi, yangi tug'ilgan chaqoloqlarni to'satdan o'limi sindromini triger mexanizmlari, yangi tug'ilgan chaqoloqlarni to'satdan o'limi sindromini abortiv kechishi, perventiv chora – tadbirlari, yangi tug'ilgan chaqoloqlarni to'satdan o'limi sindromini klinik variantlari, yangi tug'ilgan chaqoloqlarni to'satdan o'limi sindromida ichki a'zolardagi morfologik o'zgarishlarni keng yoritib berishgan.

Ular monografiyada yangi tug'ilgan chaqoloqlarni to'satdan o'limi sindromini epidemiologiya va xavf xatar omillarini, yangi tug'ilgan chaqoloqlarni to'satdan o'limi sindromini abortiv kechishi va preventiv choralarini, yangi tug'ilgan chaqoloqlarni to'satdan o'limi sindromini o'limidan keyingi diagnostikasi taxlillarini berishgan.

Bunda yangi tug'ilgan chaqoloqlarni to'satdan o'limi sindromida yurak endomiokardidagi metabolistik, distrofik va sklerotik, gemodinamik (gipertenziv) o'zgarishlar bo'lishi, shunga mos ravishda o'pka to'qimasida massiv diapedez qon quyilishlar, seroz shishlar, gemodinamik buzilishlar, emfizema o'chog'lari bo'lishi qayd etilgan [15,30,58,79].




**Rasm - 20 .** Qorinchalar aro to'siqni nuqsoni. a – mushak qismida; b – perimembranoz qismida.

Akademik M.S.Abdullaxo'jayeva nashr ettirgan ilmiy ishlarida yurak nuqsonlarini Amerika patologlarining ma'lumotlariga bo'yicha yangi tug'ilgan chaqaloqdar orasida 0,9%, Rossiyada 1%-dan ko'ra ko'proq hollarda uchrashini, O'zRPAM ma'lumotlariga bo'yicha u 4%-ni tashkil etadi, ularni 70%-ida qorinchalararo to'siq, 11%-ida bo'l machalar o'rtasidagi to'siq nuqsoni, 4-5%ida Fallo tetradi va 3 kamerali yurak, 2%-ida endokard fibroelastozi va Botallo yo'lining ochiq qolganligi uchrashini ta'kidlagan [1,20].

Dilyatastion kardiomiopatiya – bolalarni nogironligigiga olib boruvchi, tugallanishi yaxshi bo'l magan yurak – qon tomir sistemasini og'ir kasalliklaridan biri, letalligi 23-60%-gacha bo'lib, bolani 1-2yilda o'limiga olib keladi. O'lim ko'rsatkichi 2-10%-gacha. Gipertrofik kardiomiopatiya - miokardni nisbatan og'ir kechuvchi, letalligi yuqori bo'lgan kasalligidir. O'lim asosan bexosdan kuzatilib, 4-6%-ni tashkil etadi. O'pka gipertenziyasi bolalarni nogironligiga sabab bo'lib, o'lim ko'rsatkichi 12,4%-ni tashkil etadi. Kasallik kechishi 2-3yil, 60% bolalar bexosdan yoki yurak dekompensiyanidan vafot etishadi. Toj

tomirlarni uzoq davom etuvchi vaskuliti - erta nogironlikga va bexosdan o‘limga olib boradi. Kasallik 5 yoshga bo‘lgan bolalarda ko‘proq kuzatiladi. Bunda perinatal davrda ta’sir ko‘rsatgan xavfli omillar, koronar tomirlarni tug‘ma anomaliyalari moillikni ortttiradi [1,34,30,46,60].



**Rasm-21.** Qorinchalar aro yolg‘on xordalar


- Yurak nuqsonlarini klassifikastiyasi
- Tug‘ma
- Orttirilgan
  1. Oddiy
  2. Murakkab
    - birgalikdagi
    - Kombinastiyalashgan
- Funkstional bosqichlari
  - Kompensirlangan
  - Subkompensirlangan
  - Dekompensirlangan [17,58,60]

### *Orttirilagan yurak nuqsonlarini etiologiyalari:*

Revmatizm, infekstion endokardit, ateroskleroz, sistemali qizil yugurgi va b. revmatik kasalliklar, zaxm, gipertoniya kasalligi, tireotoksikoz, miokarditlar va b. distrofik jarayonlar (nisbiy funkstional nuqsonlar), biriktiruvchi to‘qima displaziysi – klapanlar prolapsi, yurakni jaroxatlanishi va b.

Fallo tetradasi: 1. qorinchalar aro to‘siqni nuqsoni,  
2.o‘pka arteriyalarini stenozi,  
3.o‘ng qorinchani gipertrofiyasi,  
4. aortani destropozistiyasi [34.67,79].

Fallo tetradasida – chaqoloq o‘sishdan orqada qoladi, keskin namoyon bo‘lgan xansirash, tez charchash, stianoz, buklanib o‘tirish sindromi, baraban tayoqchalari, tirnoqlari soat oynasiga o‘xshashligi, yurak bukriligi, polistitemiya, arterial va venoz bosimni pasayishi, qon oqimini tezlashuvi kuzatiladi. Og‘irlashuvlari – pnevmonyalar, bakterial endokarditlar, emboliyalar va miya absstessi. Tashrix qilinmasa natija yomon bo‘ladi [30,34,74,7,79].




**Rasm -22.** Fallo tetradasida nuqsonlar orqali qonni xarakatlanishi, akrostionoz




**Rasm -23.** Fallo tetradasidagi akrostionoz.


### Normal yurak




### Fallo tetradasi




**Rasm -24.** Normal va Fallo tetradasidagi yurak.



**Rasm - 25.** Uch tabaqali qopqani atreziyasi. 1- aortal tirkishni ochiqligi. 2-normal ko'rinishi.



**Rasm -26.** Trikuspidal atreziyasi.



**Rasm -27.** Uch tabaqali qopqani atreziyasi.

Kichik qon aylanishi doirasida dimlanish bilan davom etuvchi yurakning tug‘ma nuqsonlari. Uch tabaqali qopqani atreziyasi.

Uch tabaqali qopqani atreziyasi - yurak nuqsonlari ichida uchrashi bo`yicha 3-o`rinda turib, sianoz bilan kechadi. O`ng bo`lmacha va o`ng qorinchalar o`rtasida tutashmaganligi bilan xarakterlanadi.


Klinik o`pkada qon oqimini kamayishi sindromi, ko`krak qafasini chap sohasida pansistolik shovqin eshitilishi, chap qorinchani kuchli urishi bilan xarakterlanadi [47,67,79].

### Dekstroversiya

**Levokardiya** – yurak normal joylashgan, faqat cho‘qqi soxasi chap tomonga yo‘nalgan.

**Dekstrokardiya** – yurakni ko‘p qismi ko‘ks bo‘shlig‘ida o‘ng tomonda joylashgan.

**Mezokardiya** – yurakni o‘rta o‘qi o‘rta-sagistal tekislikda joylashgan, yurak cho‘qqisiga ega bo‘lmaydi.



**Rasm -28.** Yurakning anomal joylashuv varantlari.




**Rasm -29 .**Yuraning anomal joylashuvi.

Yurakni ko'ks bo'shlig'idan tashqari joylashuvlari:

- ❖ Ko'krak – yurak plevral bo'shliqga siljigan.
- ❖ torakoabdominal – yurak bir vaqtda ko'ks va qorin bo'shlig'ida joylashgan. Diafragmada nuqson bor.
- ❖ bo'yin – yurak dislokasiyasi to'xtab qolgan bo'ladi.

Qorinchalar gipoplaziyasi – bu tug‘ma nuqsonda chap yoki o‘ng qorincha bo‘shlig‘i o‘lchami kichiklashgan bo‘ladi [30,58,67].



**Rasm -30.** O‘ng va chap qorinchalarni gipoplaziyasi

Yurak kasalliklarida o‘pkadagi o‘zgarishlar

1. O‘pkada qon dimlanishi (mitral poroklar)


- erta belgisi yuqori o‘pka maydoni qon tomirlari pastkiga nisbatan kattaroqligi, normada gravitastiya tufayli teskari.
- o‘pka tiniqligi pasaygan
- o‘pka surati kuchaygan
- ildiz kengaygan gomogenlashgan
- plevra sinuslarida suyuqlik
- gemosideroz (o‘choqli disseminastiya)
- o‘pka periferiyasida Kerli chiziqlari (bo‘lakchalar aro shish)

2. O‘pka gipertenziyasi (mitral nuqsonlar)

- o‘pka tiniqligi saqlangan
- o‘pka sur’ati markazda kuchaygan periferiyada susaygan
- ildiz kengaygan strukturasi nogomogen


- ildizdagи kengaygan qon tomirlarni ko'ndalang kesmasi olcha danagiga o'xshaydi
- O'pka gipervolemiyasi (Bottalo yo'li, qorincha va bo'l macha aro nuqsonlar)
  - ildiz kengaygan
  - o'pka sur'ati kuchaygan
  - O'pka gipovolemiyasi (Fallo tetradasi)
  - ildiz toraygan
  - o'pka sur'ati kamaygan [12,34,45,46,79]

Yurak o'smalari – kam uchraydi, polimorf manzaraga ega. Tiriklikda aniqlash qiyin, ko'pincha autopsiyada aniqlanadi. Klinik ko'pincha yurak etishmasligi, dimlanishlar, ekssudativ va konstruktiv perikardit, yurak tamponadasi bilan namoyon bo'ladi. O'smalar birlamchi (75%) va ikkilamchi (metastazlar, 25%) bo'lib, yaxshi va yomon sifatlilarga bo'linadi. Yaxshi sifatli o'smalariga: gemangiolar, miksomalar, rabdomiomalar, teratomalar, lipomalar, fibromalar va b. kiradi. Yomon sifatli o'smalariga: sarkomalar, limfomalar kiradi. O'pkalar, me'da, sut bezlari, teri ko'pincha metastazlar beradi. Birlamchi o'smalarga nisbatan metastazlar 40% ko'p uchraydi [34,46,78].




**Rasm -31.** Yurak chap bo'l machasidagi yirik emirilayotgan o'sma-miksoma tasvirlangan, devor oldi tromblari.

Yurak miksomalari – yaxshi sifatli yurak bo‘liqlari o‘smasi. Birlamchi o‘smalarni  $\frac{1}{2}$  qismini tashkil etadi, 75% o‘ng, 25%chap bo‘lmachalarda kuzatiladi. Kam xolatlarda qorinchalarda, klapanlarda kuzatiladi. O‘sma konsistenstiyasi yumshoq, jelesimon, qizg‘ish-qo‘ng‘ir rangda, nekroz va qon quyilish o‘chog‘lari, oxaklanish o‘chog‘lari bilan so‘rg‘ichsimon ko‘rinishda o‘sadi. 40% xolatlarda emboliya beradi.



**Rasm -32.** Yurak chap bo‘lmachasidagi lipomasi.

Fibroma – ko‘proq qorinchalar va qorinchalar aro to‘siqda solitar tugun ko‘rinishida uchraydi, diametri 3-10sm, zinch oqish-kulrang tugun ko‘rinishida invaziv o‘sadi. O‘tkazuvchanlikni buzib, to‘satdan o‘limga olib keladi.




**Rasm -33.** Qorinchalararo to‘siqdagi fibroma.

Lipoma – ko‘proq chap qorinchada, o‘ng bo‘lmachada, qorinchalar aro to‘siqda uchraydi. Tugun ko‘rinishida o‘sib, 2kg kattalashishi mumkin. Joylashuvi subepikardial, subendokardial, intramural. O‘sma yurakni qisqarishiga, ritmini buzilishiga, o‘tkazuvchanlikni buzilishiga, yurakni ezilishiga sabab bo‘ladi.


Papillyar fibroelastoma – ko‘proq aortal klapanda kuzatiladi, endokarddan kelib chikadi. Gistologik o‘sma tuguni endokard bilan qoplangan, tarkibida elastik tolalar, sillik muskullar, ularda mukopolisaxaridlar bo‘ladi. Ba’zan to‘satdan o‘limga sabab bo‘ladi.

Yurak rabdomioması – mioblastlardan yuzaga kelib, ko‘prok 15 yoshgacha bo‘lgan bolalarda kuzatiladi, yaxshi sifatli o‘sma. Ko‘pincha u bosh miya po‘stlogini tuberoz sklerozi, buyraklar adenomasi va teri adenomasi bilan birga uchraydi. Ko‘proq rabdomiomalar qorinchalarda bo‘shlig‘iga qarab o‘sadi, o‘lchami xar-xil. Qobiqqa ega emas, atrofdan aniq chegaralangan, glikogenga boy bo‘ladi. Natijasi yaxshi emas.

Yurak gemangiomasi – yaxshi sifatli o‘sma, o‘sma yurakni xamma soxasida bo‘shliqga qarab, intramural va epikardial o‘sishi mumkin. O‘sma ko‘kish-qirmizi rangda, g‘ovaksimon, uzum shingillariga o‘xshab o‘sadi. Ko‘pincha autopsiyada aniqlaniladi.



**Rasm -34.** Yurak chap bo‘lmachasidagi gemangiomasi.



**Rasm-35.** Rasmda 12 kunlik chaqoloqni perikardial teratomasi, ekssudativ perikardit bilan asoratlangan.

Atrioventrikulyar tugun mezoteliomasi – yaxshi sifatli o’sma, atrioventrikulyar tugun shikastlanadi, aniq chegaraga ega bo’lmaydi, ayollarda uchraydi. Yurakni o’tkazuvchanligi buzilishiga, blokadasiga, asistoliya va fibrilyastiyaga sabab bo‘ladi. Tusatdan o‘limga olib keladi.

Yurak teratomalari – kam uchraydi, xomilani xamma varaqlari to‘qimalarini o‘zida saqlaydi. Asosan ayollarda kuzatilib, noksimon ko‘rinishda, diametri 15sm. gacha polikistoz ko‘rinishda bo‘ladi. To‘satdan o‘limga olib keladi.

Yurakni birlamchi yomon sifatli o‘smalari 25% uchrab, kam kuzatiladi. Ko‘proq sarkomalar, perikardial mezotelioma, birlamchi limfoma kuzatiladi.

Sarkomalar – 30 yoshdan keyin kuzatilib, mezenxima tuzilmalarida rivojlanadi (rabdomiosarkoma, fibrosarkoma, angiosarkoma va b.). Asosan yurakni o‘ng bo‘lmachasi va qorinchasi shikastlanadi.invaziv o‘sadi, yurakni xamma qatlamlariga o‘sib kiradi, tomirlar va klapamlarni oklyuziyasini keltirib chiqaradi. O‘pkaga, ko‘ks bo‘shlig‘iga, traxeobronzial va retroperitoneal limfa tugunlariga, buyrak usti bezlariga va miyaga metastazlar beradi.

Klinik belgilari:

- Ko‘ks orti soxasida og‘riq

- Tez avjlanib boruvchi yurak etishmovchiligi
- Gepatomegaliya
- Perikardda gemorrargik suyuqlik
- O‘tkazuvchanli buzilishi, blokada, ritmni buzilishi
- Yuqori kovak vena sindromi
- Tana xaroratini ko‘tarilishi
- Ozib ketish [34,46,78,79]

Yurakni tug‘ma nuqsonlaridan o‘lim xolatlarini kamaytirish - perinatal davrda o‘z vaqtida patologiyani aniklashga va jarroxlik aralashuvlarini erta tashkil etishga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun tibbiy-genetik maslahatlarni keng targ‘ib etish, tug‘ruqgacha skrininglarni tashkil etish, kardiologik va kardiojarrohlik yordamlari uchun zamonaviy jixozlar bilan etarlicha ta’minalash zarur hisoblanadi.

### **1.5. I-BOB bo‘yicha xulosa**

Bolalar o‘limini kamaytirish – jamiyatni eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni o‘limini davlat tuzilmalari tomonidan kamaytirishga intilish – bu davlatni ekonomikasi siyosatini o‘zgartirishga jamiyatni ijtimoiy va ma’naviy rivojlanishi darajasi ko‘tarishga, demokratik o‘zgarishlariga bog‘liq rivojlanishini ko‘rsatkichi sifatida yuzaga chiqadi.

Butun dunyo sog‘liqni saqlash tashkiloti ko‘rsatmasi bo‘yicha yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni o‘limi ko‘rsatkichlari: perinatal davrdagi o‘limga (homiladorlikni 22 xafasidan tug‘ruqdan keyingi 1-xaftagacha - ertangi neonatal o‘lim), kechki neonatal o‘lim (8-sutkadan 28-sutkagacha), postneonatal davr 1-yil oxirigacha muddatlarni o‘z ichiga oladi.

Neonatal davr – erta (birinchi xafta) va kechki (2-4xafta) davrlarga bo‘linadi. 5-xaftadan yil oxirigacha postneonatal davr deyiladi.

Perinatal davrdagi turli patologik holatlar, yurak - qon tomirlarini tug‘ma nuqsonlari, distrofik va gipertenziv kasalliklari chaqaloqlar o‘limini katta qismini tashkil etmokda.

Perinatal o‘limlarni sabablari rivojlanayotgan davlatlarda 22,5% asfiksiya va tug‘ruq shikastlari, 12,7% yurak - qon tomirlarini tug‘ma nuqsonlari, distrofik va gipertenziv kasallikkleri, 1,4% infekstiyalardir. Rivojlangan davlatlarda yurak - qon tomirlarini tug‘ma nuqsonlari, distrofik va gipertenziv kasallikkleri ko‘proq, kamrok intranatal sabablar va infekstiyalar bo‘ladi.

Oxirgi vaqtlardagi ilmiy tadqiqotlar chaqaloqlar va yosh bolalardagi og‘ir kechuvchi, kuchayib boruvchi yurak-qon tomirlari sistemasi kasalliklarini asosida mitoxondriya patologiyasi bilan bog‘liq hujayra energetikasini buzilishi, metabolistik o‘zgarishlarni rivojlanishi yotishi aniqlangan.

Har o‘n yilliklarda statistika ma’lumotlari bo‘yicha yurak - qon tomirlari patologiyasi bilan ogriyotgan bolalar soni 1,5marta ortishi kuzatilmokda. Ularni kupchiligi bolalikdan nogiron bo‘lib qolmoqda. Shunga mos ravishda chaqaloqlar va bolalardagi yurak - qon tomirlarini kasallikkleri sog‘liqni saqlashni muxim muammolaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Dilyatastion kardiomiopatiya, gipertrofik o‘pka gipertenziysi, toj tomirlarni uzoq davom etuvchi vaskulitlari, qopqalarni nuqsonlari ko‘pincha chaqaloqlarni, bolalarni erta nogironligiga va bexosdan o‘limiga sabab bo‘ladi. Bunda perinatal davrda ta’sir ko‘rsatgan xavfli omillar – yurak -qon tomirlari sistemasini tug‘ma anomaliyalari moillikni orttiradi.

Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni o‘limi ko‘rsatkichi darajasi o‘g‘il bolalarda 1000ta tirk tug‘ilganga 16,6%, qiz bolalarda 13,1%-ga teng.

Yurak-qon tomirlari sistemasi tekshirilayotganda ularni o‘lchamlari, so‘ngra og‘irligi aniqlanadi. Yurak bo‘limlari - dastlab o‘ng bo‘lmacha, so‘ngra o‘ng qorincha, o‘pka arteriyasi, uch tabakali qopqa, o‘pka arteriyasi yarim oysimon qopqasi, qopqa yuzasidan o‘pka arteriyasini kengligi o‘lchanadi. Xuddi shu tartibda yurakni chap yarmi va aortasi, toj tomirlari yoriladi.

Bo‘lmachalararo to‘sinq tekshirilayotganda oval tirqish holatiga e’tibor qaratiladi. Yurakni yorib ko‘rish qorinchalar qalinligini va kesimdag‘i manzarasini aniqlash bilan yakunlanadi. O‘lim sabablari - yangi tug‘ilgan bolaning o‘limi uning

tug‘ilishidan oldin, tug‘ilishi jarayonida yoki tug‘ilganidan so‘ng sodir bo‘lganligi e’tiborga olinadi.

Yurakni tug‘ma nuqsonlaridan o‘lim xolatlarini kamaytirish - perinatal davrda o‘z vaqtida patologiyani aniqlashga va jarroxlik aralashuvlarini erta tashkil etishga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun tibbiy-genetik maslaxatlarni keng targ‘ib etish, tugruqgacha skrininglarni tashkil etish, kardiologik va kardiojarroxlik yordamlari uchun zamonaviy jihozlar bilan etarlicha ta’minlash zarur hisoblanadi.

## II-BOB.

### **TADQIQOT MATERIALI VA TEKSHIRISH USLUBLARI:**

#### **2.1. Tekshirilayotgan materiallar haqida umumiy ma'lumotlar**

2012-2016yillarda Andijon viloyatida tug‘ruq komplekslarida jami 4219ta chaqoloq tug‘ilib, shundan 2342tasi o‘g‘il bola, 1877tasi qiz bola jinsiga mansub bo‘lgan.

***Jadval-5.***

#### **Andijon viloyatida 2012-2016yillarda tug‘ilgan chaqoloqlarni jinsi bo‘yicha statistik ma'lumotlari**

№	Tumanlar	O‘g‘il bola					Qiz bola				
		2012y	2013y.	2014y.	2015y.	2016y	2012y	2013y.	2014y.	2015y.	2016y
1	Andijon shahar	98	100	89	84	80	83	73	66	76	78
2	Andijon tuman	69	71	51	45	63	49	51	36	43	58
3	Asaka tuman	56	54	44	40	54	47	48	29	26	48
4	Baliqchi tuman	30	31	36	16	28	20	27	28	23	26
5	Buloqboshi tuman	19	20	14	21	19	18	17	13	8	14
6	Bo‘z tuman	9	11	17	12	9	3	2	6	4	3
7	Marxamat tuman	17	19	13	15	14	29	27	12	22	11
8	Paxtabod tuman	23	22	20	21	19	10	13	20	17	17
9	Izboskan tuman	30	31	44	33	28	33	32	29	24	27
10	Qo‘rg‘ontepa tuman	16	17	15	16	14	12	13	12	6	12

11	Oltinko‘l tuman	61	54	23	34	48	37	38	23	21	40
12	Xo‘jabod tuman	19	20	17	16	19	14	12	10	3	14
13	Xonobod tuman	11	12	12	12	13	11	11	9	5	9
14	Jalaquduq tuman	17	18	16	15	17	21	19	11	13	14
15	Shaxrixon tuman	31	30	37	26	28	24	23	27	21	27
16	Ulug‘nor tuman	5	3	3	4	4	2	4	3	6	4
	Jami:	511	513	451	410	457	413	410	334	318	402


Andijon viloyatini Andijon ( $90\pm0,82$  va  $75\pm0,65$ ), Andijon( $60\pm1,31$  va  $47\pm1,08$ ), Marxamat( $16\pm0,55$  va  $20\pm1,66$ ), Qo‘urg‘ontepa( $16\pm0,26$  va  $11\pm0,76$ ), Xo‘jaobod( $18\pm0,34$  va  $11\pm0,25$ ), Jalaquduq( $17\pm0,25$  va  $16\pm0,96$ ) tumanlari axolisida o‘g‘il va qiz bola chaqoloqlarni tug‘ilishi 2013 yilda ko‘proq, 2016yilda nisbatan kamrok kuzatildi.

Asaka ( $50\pm0,91$  va  $40\pm1,58$ ), Paxtaobod ( $21\pm0,31$  va  $15\pm0,89$ ), Ulug‘nor ( $4\pm0,37$  va  $4\pm0,68$ ) tumanlarida 2012yilda, Baliqchi( $28\pm1,25$  va  $25\pm0,59$ ), Bo‘z ( $12\pm0,86$  va  $4\pm0,71$ ), Shaxrixon ( $30\pm0,67$  va  $24\pm0,47$ ) tumanlarida 2014yilda o‘g‘il va qiz chaqoloqlar tug‘ilishi nisbatan ko‘proq kuzatildi.

Andijon shahar va ayrim tumanlarida 1-2 homiladorlikdagi tug‘ilishlar soni 2012-2013yillari ( $67\pm0,5$  va  $38\pm1,1$ ), 3-homiladorlikdagi tug‘ilishlar soni esa 2014-2016yillari ( $26\pm1,3$ ), 4-homiladorlikdagi tug‘ilishlar soni esa 2016-2016yillarda ( $24\pm2,2$ ) nisbatan baland ko‘rsatkichni namoyon qildi.


*Diagramma-4.*

### Andijon viloyatida tumanlarida 2012-2016yillarda tug‘ilgan o‘g‘il va qiz bola chaqoloqlarni statistik ma’lumotlari




*Diagramma-5*

### Andijon viloyatida 2012-2016yillarda tug‘ilgan chaqoloqlarni statistik ma’lumotlari



**Diagramma -6**

**Andijon viloyatida 2012-2016yillarda ayollardagi 1-homiladorlik  
bo'yicha tug'ilgan chaqoloqlarni statistik ma'lumotlari**



Andijon shaxrida 3-homiladorlikdagi tug'ilishlar soni 2016yilda ( $26\pm1,1$ ) nisbatan pastroq bo'ldi.

Andijon tumanida 1-homiladorlikdagi tug'ilishlar soni 2016yilda yuqori ( $48\pm1,7$ ), 3-4 homiladorlikdagi tug'ilishlar soni esa pastroq ko'rsatkichni ( $17\pm0,9$ ) va  $10\pm1,5$ ) namoyon qildi.

Asaka tumanida 1-homiladorlikdagi tug'ilishlar soni 2014yilda ( $42\pm1,9$ ), 4-homiladorlikdagi tug'ilishlar soni esa 2016yilda pasayishi ( $7,2\pm1,3$ ) kuzatildi.

Baliqchi tumanida 3-4 homiladorlikdagi tug'ilishlar soni 2014-2016yillari ortishi ( $13\pm1,0$ ), 2016-2016yillarda esa pasayishi ( $8\pm2,0$ ) kuzatildi.


Buloqboshi tumanida 2016yilda 2-homiladorlikdagi tug'ilishlar sonini ortishi ( $7\pm1,1$ ), 3-4 homiladorlikdagi tug'ilishlar esa pasayishi ( $3,2\pm1,0$ ) kuzatildi.

Bo'z tumanida 2014-2016yillarida 1-homiladorlik tug'ilishlar soni ortgan ( $7\pm0,9$ ), 2016yilda 3-4 homiladorlikdagi tug'ilishlar soni pasayganligi ( $2,2\pm0,5$ ) kuzatildi.

Marxamat, Paxtaobod tumanlarida 1-2 homiladorlikdagi tug‘ilishlar soni 2013yili ortgan( $16\pm0,5$  va  $14\pm0,4$ ), 2016yilda esa 3-4 homiladorlikdagi tug‘ilishlar soni pasayganligi qayd etildi ( $3,8\pm0,5$  va  $4,5\pm0,5$ ).

### ***Diagramma-7***

#### **Andijon viloyatida 2012-2016yillarda ayollardagi 2-homiladorlik bo‘yicha tug‘ilgan chaqoloqlarni statistik ma’lumotlari**



Izboskan tumanida 2014yilda 1-2homiladorlikdagi tug‘ilishlar ortgan ( $30\pm1,3$ ), 4-homiladorlik tug‘ilishlar kamaygan ( $4,2\pm0,6$ ). 2016 yilda 1,3,4 homiladorlikdagi tug‘ilishlar kamaygan.

Qo‘rg‘ontepa tumanida 2116yilda 2-3 homiladorlikdagi tug‘ilishlar mikdori ortgan( $4,8\pm1,1$ ). Oltinko‘l tumanida 2014yilda 1-homiladorlikdagi tug‘ilishlar kamaygan ( $38\pm2,0$ ), 2016yilda 1-homiladorlikdagi tug‘ilishlar ortgan, 3-4 homiladorlikdagi tug‘ilishlar kamayganligi kuzatildi ( $4,8\pm1,8$ ).

Xo‘jaobod tumanida 2013yilda 2-homiladorlikdagi tug‘ilishlar mikdori ortgan ( $9\pm1,1$ ), 2016-2016yillarda esa 4-homiladorlikdagi tug‘ilishlar soni kamayganligi ( $2,4\pm1,0$ ) qayd etildi.

Xonabod shaxrida 2016yilda 4- homiladorlikdagi tug‘ilishlar soni ortganligi ( $2\pm0,9$ ) kuzatildi.

Jalaquduq tumanida 2014-2016 yillarda 3-4 homiladorlikdagi tug‘ilishlar soni ortgan ( $5,2\pm0,8$ ), 2012yilda 1-homiladorlikdagi tug‘ilishlar ortib ( $15\pm1,1$ ), keyingi yillarda esa pasaygan.

Shahrixon tumanida 1-homiladorlikdagi tug‘ilishlar 2014yilda ortgan ( $23\pm1,5$ ), 2013yilda esa 3-homiladorlikdagi tug‘ilishlar miqdori ortgan ( $8\pm0,7$ ).

Ulug‘nor tumanida 1-2 homiladorlikdagi tug‘ruqlar 2014-2016yillari ( $3\pm1,0$ ), 3-4 homiladorlikdagi tug‘ilishlar soni esa 2016yilda ortgan ( $2\pm0,7$ ).

Yangi tug‘ilgan chaqoloqlar murdasini patologoanatomik tekshirish va sud tibbiy ekspertizasida quyidagi hujjatlar o‘rganiilib chiqildi:


1.kasallik tarixi, tug‘ish va chaqaloqni rivojlanish tarixi.

2.sud tibbiy ekspertiza tayinlash to‘g‘risidagi qaror

Bunda jasad yorish bayonnomasi va STEdagи tashqi tekshirish, ichki tekshirish qo‘sishimcha tekshirishlar (ichki a’zolarni bo‘lakchalari sud-gistologik tekshiruvi, murda qonini sud-biologik tekshirish, murdani sur’atga olish) bajarilgan.


**Diagramma-7.**

**Andijon viloyatida 2012-2016yillarda ayollardagi 3-homiladorlik bo'yicha  
tug'ilgan chaqoloqlarni statistik ma'lumotlari**




**Diagramma-8**

**Andijon viloyatida 2012-2016yillarda ayollardagi 4-homiladorlik bo'yicha  
tug'ilgan chaqoloqlarni statistik ma'lumotlari**




**Diagramma-9**

**Andijon viloyatida 2012-2016yillarda ayollardagi homiladorlik bo'yicha o'g'il bola tug'ilgan chaqoloqlarni statistik ma'lumotlari**



**Diagramma-10**

**Andijon viloyatida 2012-2016yillarda ayollardagi homiladorlik bo'yicha qiz bola tug'ilgan chaqoloqlarni statistik ma'lumotlari**



## **2.2. Morfologik (autopsiya tekshiruv) usullari**

AVSTE sud tibbiy gistologik laboratoriysi va Andijon viloyati patologoanatomik byurosi patogistologik laboratoniyasida yangi tug'ilgan chaqaloqlarni yurak – qon tomirlari patologiyasi kasalliklaridan o'lgan murdalarini ichki a'zolaridan olingan to'qimalarini bo'lakchalari 10% formalin eritmasida 1:10 nisbatda fiksastiyalandi, bo'lakchalardan 0,5-0,5sm o'lchamda qirqmalar olindi, ular spirtli o'tkazgichdan o'tkazilib, parafinli bloklar tayyorlandi. Bloklardan gistologik kesmalar olindi va buyum oynalariga o'rnatilib, gematoksilin – eozin usulida buyab, gistologik preparatlar tayyorlandi. Tekshiruv O'zbekiston RSSV tomonidan 2015 yilda tasdiqlangan E-1, E-2 standartlari asosida o'tkazildi [17,28,79]. Vafot etgan chaqoloqlarni jasadini yorish, sud tibbiy ekspertizasini o'tkazishga asos SSV 574 buyrugi va prokuratura bo'linmalarini ushbu holat bo'yicha sud tibbiy ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qaror bo'lgan.

### **O'z. Resp. SSVning 1992 y "04" 11 574 son buyrug'iiga 8 ilova**

#### **Nobud bo'lgan bolalar murdasini yorish to'g'risida n i z o m**

1. 7 kunlikdan to 14 yoshgacha bo'lgan davrda davolash muassasalarida nobud bo'lgan bolalarning murdalari "Davolash-profilaktika muassasalarida o'lganlarning murdalarni yorish tartibi to'g'risida" nizomga muvofiq yorib tekshirib ko'rildi.

2. Bolalarning murdalari yorilgan mahallarda patologoanatomik bo'limlarning mudirlari 100% hollarda autopsiya materialining mikroskopik, bakteriologik va virusologik tekshiruvdan o'tishni taminlaydi.

3. Dispanser hisobida turmaydigan bolalar davolash muassasalaridan tashqarida to'satdan o'lib qolgan holatlarda ularning murdalari sud-tibbiy tekshiruvdan o'tkazish uchun yorib ko'rishi kerak. Patologoanatom sud-tibbiy ekspertiza byurolari tomonidan shartlashilgan holda maslaxat bilan yordam berish uchun jalb etilishi mumkin. Dispanser hisobida turadigan bolalar to'satdan o'lib qolgan taqdirda ularning jasadini patologoanatom yorib tekshirib ko'radi.

4. Bosh vrach yoki patologoanatomiyasi bo'lim mudiri mazkur davolash muassasi yoki sanitariya epid.stanstiyasi gumoni bilan infekstion kasallikkdan

o‘lgan deb shubha qilingan hamma hollarda murdani yorib olingen materiallarni virusologik (yoki immunofluoresstent) va bakteriologik tekshirishdan o‘tkazishni taminlaydi.

## **O va BMKBB boshlig‘i P.R.Menliqulov**

### **O‘z. Resp. SSVning 1992 y "04" 11 574 son buyrug‘iga 9 ilova**

#### **O‘lik tug‘ilgan bolalar va o‘lgan chaqaloqlar perinatal davrida o‘lganlarning murdasini yorish tartibi to‘g‘risida n i z o m**

